MDIS Tashkent

MANAGEMENT, MARKETING AND FINANCE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL



VOLUME 3, ISSUE 1

Management Development Institute of Singapore in Tashkent

International scientific journal Management, Marketing and Finance

VOLUME 3 ISSUE 1
JANUARY-FEBRUARY 2026

“Menejment, marketing va moliya” xalqaro ilmiy jurnali 2026-yil 1-soni

ISSN 3030-3745 | WWW.JMMF.UZ

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 27-sentabrdagi 361/5-sonli qaroriga muvofiq dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Texnika, iqtisodiyot, yuridik (huquq) fanlari yo‘nalishlari bo‘yicha yozilgan ilmiy maqolalar nashr etiladi.

Tashkent 2026

ISSN 3030-3745
"Management, Marketing and Finance" xalqaro ilmiy jurnali 2026-yil 1-soni – 2025-yil yanvar-fevral.

Tahrir hay'ati

Tahrir hay'ati raisi

Mamatkulov Ilhom Abdurashidovich	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti rektori, i.f.d.*

Tahrir hay'ati raisi o'rinbosari

Ishanxodjayeva Dildora Aleksandrovna	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti Tadqiqot, innovatsiyalar va xalqaro munosabatlar bo'yicha direktor, i.f.f.d. (PhD)*

Tahrir hay'ati mas'ul kotibi

Hasanov Tohir Abdurashidovich	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti konsultanti, i.f.d., dotsent.*

Tahrir hay'ati a'zolari

Eric Kuan	*Singapur menejmentini rivojlantirish instituti prezidenti (MDIS, Singapore), PhD, professor.*
Paul van Gardingen	*Bangor universiteti prorektori (Bangor University, UK), PhD, professor.*
Abigail Moriarty	*Sanderland universiteti Markaz rahbari (University of Sunderland, UK), PhD, professor.*
Rob Burton	*Tissayd universiteti decani (Teesside University, UK), PhD, professor.*
Mamatkulov Abdurashid	*Toshkent davlat agrar universiteti professori, i.f.d., professor.*
Bektemirov Abdumalik	*Samarqand iqtisodiyot va instituti kafedra mudiri, i.f.d., professor.*
Raxmonov Nuriddin	*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, Moliya va moliyaviy texnologiyalar fakulteti dekani, PhD*
Aliyeva Deniza	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti dotsenti, i.f.d.*
Abdullayev Baxrom	*Urganch davlat universiteti rektori, fiz-mat.f.d.,dotsent.*
Raximxodjayeva Nodira	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti dekani, i.f.f.d.*
Xo'jayev Jamol	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti dotsenti, t.f.f.d.*
Kurbonova Dilafruz	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti dotsenti, i.f.f.d.*
Bektemirov Abduxamid	*Samarqand davlat universiteti dotsenti, PhD.*
Veluthedan Sreekanth	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti xorijiy o'qituvchisi, PhD, professor.*
Alekha Panda	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti xorijiy o'qituvchisi, PhD, professor.*
Firas Halawani	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti xorijiy o'qituvchisi, PhD, professor.*
Maged al Dubai	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti xorijiy o'qituvchisi, PhD, professor.*
Manjunath Bharmappa Ramesh	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti xorijiy o'qituvchisi, PhD, professor.*

"Management, Marketing and Finance" xalqaro ilmiy jurnalida har bir maqolaga DOI raqam olinib, Polshaning Indeks Copernikus (OAK12), Yevropaning Zenodo va Open Aire, Rossiyaning Cyberlinenka, Angliyaning Europub xalqaro ilmiy bazalariga va www.jmmf.uz saytiga joylanadi, Google akademiya xalqaro ilmiy qidiruv tizimida indekslanadi.

© Management Development Institute of Singapore in Tashkent
© International Scientific Journal "Management, Marketing and Finance"
© Authors

KIRISH SO‘ZI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlisga va ko‘p millatli xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida 2026-yilning **“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”** deb e’lon qilinishi mamlakat taraqqiyotida mahalla institutiga berilayotgan strategik ahamiyatning yorqin ifodasidir. Mazkur yil doirasida mahallani faqat hududiy boshqaruv bo‘g‘ini sifatida emas, balki jamiyatning ijtimoiy, ma’naviy hamda iqtisodiy tayanch institutlaridan biri sifatida rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Aholining muammo va ehtiyojlarini joyida hal etish, ijtimoiy himoyani mustahkamlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda fuqarolik faolligini oshirishda mahallaning mas’uliyati yanada kengaytirilishi alohida ta’kidlandi.

Murojaatnomada mahalliy vakillik organlarining faoliyatiga ham alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, mahallalarni obodonlashtirish bo‘yicha deputatlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida har bir saylov okrugiga 500 milliard so‘m, har bir deputat tashabbusi uchun esa qo‘shimcha 330 million so‘m mablag‘ ajratilishi belgilandi. Bu orqali mahalliy muammolarni joyida hal etish, aholi manfaatlarini yanada to‘liqroq ifoda etish hamda deputatlarning mas’uliyatini oshirishga xizmat qiladi.2026 yildan tuman byudjetlarini mustaqillashtirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy moliyaviy boshqaruvda muhim burilish yasaydi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i tushumining ma’lum qismi hududlarda qoldirilishi, rejadan ortiq tushgan daromadlarning 50 foizini tuman byudjetlariga o‘tkazish, yer ijarasi va bozorlardan tushgan mablag‘larni mahalliy darajada saqlab qolish orqali tuman byudjetlarida taxminan 5 trillion so‘mlik qo‘shimcha moliyaviy manbalar shakllanadi. Mazkur mablag‘lar bevosita mahallalar infratuzilmasini yaxshilash va aholining kundalik muammolarini hal etishga yo‘naltiriladi. Shuningdek, 2026 yilda ilk bor mahalla infratuzilmasini rivojlantirish uchun 20 trillion so‘m mablag‘ to‘g‘ridan-to‘g‘ri viloyatlarga ajratilishi belgilandi. Ushbu mablag‘lar yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladigan aniq hamda manzilli loyihalarga yo‘naltiriladi. Byudjet mablag‘larining loyiha asosida sarflanishi esa samaradorlik va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qiladi. “Mahallada sanoat va xizmat” dasturi doirasida 10 mingdan ortiq ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish loyihalarini ishga tushirish, 100 mingta yangi ish o‘rni yaratish hamda 360 ming nafar aholini band qilish rejalashtirilgani mahallaning iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning mahalla institutini jamiyat tayanchi sifatida mustahkamlash borasidagi tajribasi nihoyatda muhim bo‘lib, shubhasiz, ko‘plab davlatlar uchun ham qiziqish uyg‘otmoqda. Iqtisodiyotda erishilgan natijalar – yalpi ichki mahsulotning o‘sishi, rekord darajadagi investitsiyalar va moliya tizimining mustahkamlanishi ochiq bozor iqtisodiyotini shakllantirish yo‘li to‘g‘ri tanlanganini ko‘rsatadi. Ijtimoiy sohadagi yutuqlar ham alohida e’tiborga loyiq. Kambag‘allikni ikki barobarga qisqartirish maqsadiga belgilangan muddatdan oldin erishilgani shunchaki statistika emas, balki millionlab O‘zbekiston fuqarolari hayotining amalda yaxshilanganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, 2026-yilga bunday nom berilishi mahallaning davlat va jamiyat o‘rtasidagi bog‘lovchi ko‘prik sifatidagi rolini yanada mustahkamlab, fuqarolarning faol ishtirokiga tayanadigan adolatli, ochiq va taraqqiy etgan jamiyatni barpo etishga qaratilgan strategik qaror ekanini anglatadi. O‘zbekiston so‘nggi yillarda keng qamrovli modernizatsiya yo‘lidan izchil va qat’iyat bilan bormoqda. 2026 yilning **“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”** deb e’lon qilinishi chuqur ramziy ma’noga ega bo‘lib, islohotlar markazida inson, uning farovonligi va ijtimoiy hamjihatlik turishini yana bir bor tasdiqlaydi.

I. Mamatkulov,
Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti rektori, i.f.d., professor

YANGI AVLOD MENEJERINING SHAHARLARARO ALOQALARDAGI O‘RNI

Joriy yilning 15-yanvar kuni Birodar shaharlar alyansi tashabbusi bilan Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish institutida “Yangi avlod menejerining shaharlararo aloqalardagi o‘rni” mavzusida davra suhbati bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda shaharlararo hamkorlikni rivojlantirishda zamonaviy menejerlarning yetakchilik va boshqaruv salohiyati, hududlar o‘rtasida samarali aloqalarni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, tajriba almashinuvi va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati muhokama qilindi. Ishtirokchilar tomonidan dolzarb muammolar yuzasidan fikrlar bildirilib, ularning amaliy yechimlari bo‘yicha takliflar ilgari surildi.

Davra suhbati yakunida shaharlararo aloqalarni mustahkamlashda yosh menejerlarning faolligini oshirish va bunday tadbirlarni muntazam tashkil etish zarurligi ta’kidlanib, ikki tashkilot o‘rtasida anglashuv memorandumi imzolandi.



Joriy yilning 20-fevral kuni Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashning ilk yig‘ilishi yuqori saviyada tashkil etildi. Mazkur tadbir oliy ta’limdan keyingi ta’lim va ilmiy tadqiqotlar sohasida muhim bosqich sifatida e’tirof etildi.

Yig‘ilishni Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi N. Tuxliyev ochib berib, kengash va uning huzuridagi Ilmiy seminar a’zolari bilan tanishtirdi hamda dissertatsiya ishlari yo‘nalishlari, ularga qo‘yiladigan talab va imkoniyatlar haqida batafsil ma’lumot berdi.

Shuningdek, TSMRI rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent I. Mamatkulov ushbu voqea institut ilmiy salohiyatini yanada oshirish va tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidladi. Yig‘ilish yakunida professor-o‘qituvchilar va tadqiqotchilar kengash faoliyatiga muvaffaqiyat tiladilar.









On February 12, the International Scientific and Practical Conference on “New Trends in Public Policy and Governance” was organised by the Academy of Public Policy and Administration under the President of the Republic of Uzbekistan.

The conference brought together experts, researchers, and practitioners to exchange views on current developments and future directions in public policy and governance. The event created a productive and inspiring environment for professional dialogue, knowledge sharing, and strengthening cooperation.

Among the participants were Mrs. D.A. Ishankhodjaeva, Director of the Department of Research, Innovations and International Affairs; Mr. Asghar Mehmood Sufyan, Director of the Tourism Cluster; Ms. Dildora Juraeva and Mr. Mironshoh Uktamov.

It was both valuable and inspiring to be part of this important international platform, which fostered meaningful discussions and reinforced the importance of collaboration in addressing modern governance challenges.





13-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi magistraturasi tinglovchisi, podpolkovnik Javlonov Xurshid Ergashovich tomonidan Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti talabalari uchun “Yoshlar o‘rtasida kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish va profilaktikasini tashkil etish” mavzusida navbatdagi profilaktik targ‘ibot-tashviqot tadbiri o‘tkazildi.

Mazkur tadbirda jami 322 nafar talaba, rektor maslahatchisi A.Rustamov, Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor X.Shukurov, tyutorlar jamoasi hamda OTM profilaktika inspektori O.Axmedov ishtirok etdi.

Tadbir davomida podpolkovnik X.E. Javlonov tomonidan mazmunli ma’ruzalar, jonli muloqotlar va profilaktik suhbatlar tashkil etildi. Ushbu chiqishlar yoshlarning huquqiy ongini oshirish, kiberjinoyatchilik ta’siriga tushib qolishining oldini olish hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qildi.









TOSHKENTDAGI SINGAPUR MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTIDA YOSHLAR TASHABBUSLARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH MASALALARIGA BAG‘ISHLANGAN DAVRA SUHBATI O‘TKAZILDI

Joriy yilning 24-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyatlarga bag‘ishlangan muloqotida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlash yuzasidan 26-fevral kuni Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish institutida rahbariyat va talaba-yoshlar ishtirokida davra suhbati tashkil etildi. Mazkur tadbirda institut rahbariyati, professor-o‘qituvchilar hamda bitiruvchi bosqich talabalari ishtirok etdi. Uchrashuv ochiq va samimiy ruhda o‘tib, unda yoshlarning fikr-mulohazalari, taklif va tashabbuslari atroflicha muhokama qilindi.

Davra suhbati davomida talabalar tomonidan ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish, amaliyot bazalarini kengaytirish, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy axborot-resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish kabi masalalar ko‘tarildi. Shuningdek, ayrim talabalar duch kelayotgan tashkiliy va ijtimoiy noqulayliklar muhokama qilinib, ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq takliflar bildirildi.

Tadbir yakunida yoshlar bilan muntazam ochiq muloqot o‘tkazish, ularning tashabbuslarini amaliy qo‘llab-quvvatlash hamda ta’lim va tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab olindi.









HUMAN CAPITAL AND TEAM PERFORMANCE: EVIDENCE FROM ORGANIZATIONAL TEAMS

Akhmadkulov Dilshod Rakhmonali ugli
Professor of Human Resource Management at University of Business and Science,
Department of Economics
Orcid ID: https://orcid.org/0009-0005-6763-6702
https://doi.org/10.5281/zenodo.18629095

Abstract. *This study explores the factors influencing team performance from a Human Resource Management and organizational perspective. Focusing on human capital, leadership, and team processes, the research examines how employees' knowledge, skills, competencies, and experience contribute to effective team outcomes. Team performance is analyzed in terms of productivity, coordination, work quality, and collaboration. By integrating insights from human capital theory and organizational behavior literature, the study highlights the importance of strategic HRM practices in enhancing team effectiveness. The findings provide theoretical and practical implications for HR managers and organizational leaders seeking to develop and sustain high-performing teams.*

Keywords: *Team Performance; Human Resource Management; Human Capital; Leadership; Team Processes; Organizational Effectiveness.*

1. Introduction

The development of organizational teams, defined as relatively small groups of individuals with complementary skills, knowledge, experience, and competencies who work jointly toward a common goal, is widely regarded as one of the most significant phenomena in contemporary organizational life (O'Connor, 2016). The related field of team science has burgeoned with the expansion of the industrial domain of teamwork to educational, health care, sports, and other settings (D Ulrich, 2016). Yet despite the widespread acknowledgment of the importance of teams, there remains a disconcerting paucity of research that examines how the human capital embodied by team members serves to influence the effectiveness, output, and many other performance-related metrics of the team as a group.

Human capital, the productive attributes of the workforce, has a well-established impact on organizational performance. Despite the extensive examination of these issues, work assessing how the human capital of team members relates to team performance remains scarce. A number of human capital components appear particularly relevant to team performance. Clearly identifiable, operationally defined, and capturing widely acknowledged aspects of teams, these components help to elucidate how and why human capital matters to teams. Team performance itself can also be specified in ways that are similar in spirit to models of organizational performance. All of this lends itself to the definition of organizational teams, the clarification of important boundaries, the appropriate unit of analysis, necessary contextual factors, and hypothesized direction of causation.

2. Theoretical foundations

Human capital—a term that incorporates education, work experience, behavior, and knowledge—forms the foundation of what a team can achieve (O'Connor, 2016). The knowledge

that each member brings to the team is critical since teams are advised to seek wider social capital to facilitate knowledge transfer (D Ulrich, 2016). A knowledge transfer flows among team members through graphic, modeling, coding, or verbalization techniques, where knowledge becomes easier to share after codification—such as work-flow diagrams, programming code, and verbal stories—these "elements are then available for broader review."

Human capital is widely acknowledged as a major factor in competitive advantage. While the concept of human capital has been successful at the individual and organizational levels, it has not been conceptually or empirically examined at the team-level. Some research suggests, for instance, that the more human capital a team has, the more collective efficacy it develops and when individuals bring rich experience to a team, those gains are likely to occur in innovation, quality, and productivity.

2.1. Defining human capital in organizational teams

The term "human capital" generally denotes "knowledge, skills and expertise that individuals accumulate through education and training" (D Ulrich, 2016). In teams it reflects "collectively they possess high skills," and thus enhances team performance (O'Connor, 2016). Yet, the absence of operational definitions makes it hard to specify measurement strategies. In teams, human capital can comprise four components: technical skills and knowledge, task-specific team competencies, core competencies, and collective experience acquired from past projects. Team performance may concern efficiency and output, product development cycle time, and adherence to master schedules. Additionally, cross-team collaboration is essential for knowledge transfer and limiting isolated learning; wider team-outcome scope could therefore include the amount of collaboration with other teams in the organization, as well as a formal assessment of the quality of said collaboration and the integration of knowledge produced by other teams into the projects.

2.2. Mechanisms linking human capital to team performance

Teams are often viewed as complementary working groups. Followers of the Complementary Leadership Perspective propose a facilitative leadership approach when human capital is perceived as a complement of the team in project-centered settings. Organizational teams are complex adaptive systems that evolve through multiple episodes over time, evolving as they progressively change their collective identity as a result of social learning and environmental interactions. At the team level, there is still no general agreement on what constitutes human capital. The definition nevertheless employed in numerous empirical studies is human capital as team members' knowledge and skills.

Repeated studies indicate that team processes mediate the relationship between member human capital and team performance in many settings. Team processes consist of three types: coordination, collaboration, and communication. HR bundles that encourage knowledge flows, networking, and collaboration link member human capital to performance indirectly through the mediation of social capital. Team-directed supportive leadership and social activity patterns further strengthen these indirect links by promoting an internal social-capital-generating mechanism, enhancing the value of member human capital for team functioning (D Ulrich, 2016).

3. Methodological approaches

Human capital represents a collection of knowledge, capabilities and competencies possessed by individual employees in an organization (O'Connor, 2016). All of these attributes acquired by team members form the human capital stock of a team. Employee experience—incorporating years in the organization, time served within the team and the number of prior teams

held by the members—is an important dimension of human capital (D Ulrich, 2016). Each of the attributes above is recognized as contributing to the quality of a team and can therefore be categorized as a contributor to team performance. Subsequently, the theory suggests that human capital positively affects team performance via various mechanisms.

3.1. Measurement of human capital components

The measurement of different human capital components in organizational teams can be conducted through multiple strategies, including proxies, surveys, and archival information. The employed approach to each human capital component can also differ, giving rise to composite indices based on multiple proxies or indicators for one component or a few selected indicators covering all components in human capital. Regardless of the specific component examined, scholars face the fundamental requirement of establishing validity and reliability in both the employed indicators and the datasets involving these indicators (O'Connor, 2016).

Regarding proxies for human-capital components, proficiency in external and internal competencies needed for team tasks is quoted as a skill indicator. Team-data archival-survey-based composite-indicator-individual-component-focussed theoretical models have relied on ratios between self-reported team-component- or "capability"-proficiency indicators and broader individual-skill profiles (D Ulrich, 2016). Other operationalizations for the same component are based on ordinal indicators of the perceived requirement level of different team competencies compared to individual profiles, backed by team-profiles' absence of influence on creativity-control structures. Team experience is measured in accumulative total years related to processes and formal involvement across all current and initial members collectively. The practice of estimating composite-indicator values from individual-context-wide archived databases has been reported but eludes exploration of the underlying context-specific industrial context.

The assessment of team performance has typically drawn on various objective-size–content–form–order–source-time–indicator features through a mix of overall-outcome conveyance and members-team-interactivity formalization. The combined general-form–general–individual–content specificity, task variety, and mean-embeddedness of selected skill-complementarity construction, design, and engineering elaborate meeting and coordination have been proposed to engage coordination in architectural building. Team indicators remain available to assess organizational-level governance-sharing structure and style-locus synchronizations, performance criteria, training-exclusivity space, verification-inputs levels, formalization–complexity–time combination, and remuneration-incentive condition. Other proposals envisage linking stability of event-preceding combinations of previously unconnected resources to capacity re-engagement for-the-organization flexible medium-speed parameter infrastructures.

3.2. Metrics of team performance

Teams are characterized by shared goals, mutual interdependence, and the need for coordinated activity for engagement (D Ulrich, 2016). Considerations include perceived teamwork efficacy, product or service quality, collaborative climate, and learning action capabilities. Team performance indicates a multidimensional concept, encompassing organizational learning, strategic human resource systems, and the impact of team characteristics. Proposed indicators for evaluation include meeting client requirements, schedule adherence, budget compliance, customer satisfaction, and knowledge transfer among members. Performance ratings are influenced by trait and rater effects; referees occupy positions within an organization and may deliver higher evaluations closer to project completion. The sheer complexity and challenge of characterization underscore the

centrality of the issue. Team member competencies are linked to collective confidence, self-motivation, and task engagement (O'Connor, 2016).

3.3. Research designs and analytical methods

The analysis of human capital–team performance linkages can rely on a range of research designs and analytical methods. Most studies use cross-sectional field surveys and rely on ordinary least squares (OLS) regression with estimation techniques such as robust standard errors, bootstrapping (D Ulrich, 2016) , or clustered standard errors (O'Connor, 2016). Some studies focus on industry teams within the same organization and use multisource data to address common method bias and isolate the effect of human capital on team performance. Others exploit longitudinal field data from multiple organizations to investigate team-level changes in human capital more directly or to explore human capital dynamics. The links between individual member skills and team collective efficacy have been tested through an experiment using vignettes that capture the actions of peers.

Experimental or quasi-experimental designs offer further opportunities to study human capital in teams. Examples include random assignment of teams to varying degrees of interaction opportunity, recruitment of new team members with or without specific training, and interventions that facilitate knowledge sharing through structured workflow arrangements or innovative information systems. econometric techniques suitable for non-experimental data include both simultaneous equations models, difference-in-differences estimation, and systems GMM. Social capital and horizontal supervisory leadership have respectively been analyzed by means of spatial Durbin models and random-effects Poisson regression. Such methodologies open avenues for further research on the coevolution of team composition and performance through clustered network models.

4. Implications for practice

Investment in human capital at the team level is more than a matter of training and talent acquisition; it requires careful consideration of capacity and fit. Engaging a diverse applicant pool will expand and enrich the talent pool, but the potential for misfit and onboarding challenges—exacerbated in remote and hybrid settings—should guide selection, socialization design, and succession planning (D Ulrich, 2016). Wherever possible, recruiting objectives should be captured in precise, measurable, and temporally bounded metrics to motivate teams and signal fit among candidates.

Whether capitalizing on collective human capital at formation or developing it over time, organizations benefit from equipping teams with candidate and successor data to anticipate future composition, capacity, and fit. Employers and employees alike remain limited by the clarity and confidence with which teams articulate candidate and succession needs, though inter-organizational equipment of individuals and teams is emerging.

Acquisition and development of capital that remains relevant and impactful at the team level depend on establishing measurement systems and feedback loops that connect external changes in a member’s profile or experience to internal changes in collective capacity. Productivity, quality, innovation, and coordination emerge as focal performance needs. The introduction of clear, non-competitive, and relevant metrics to complement rather than eclipse capacity-based incentives marks another move towards more inclusive and enabling systems.

4.1. Talent development and training design

Two complementary aspects emerge when considering talent development and training design for teams. First, an assessment of team members' human-capital needs is a prerequisite for formulating effective training and development strategies (Sofia Sebastião Canha, 2015). This entails understanding which skills, abilities, and knowledge are necessary for optimal collaboration and performance within the team (O'Connor, 2016). Second, with the proper human-capital features identified, training-design questions arise: What is the best content to enhance the desired attributes? When and how should delivery occur? A view of training as an organizational investment implies measurement of effectiveness, that is, the transfer of knowledge, skills, or learning acquired during training to the workplace (H. Johnston et al., 2019).

4.2. Recruitment, onboarding, and succession planning

During developing human capital through recruitment and onboarding, organizational teams should consider two key practices. First, fit between the candidates and the existing team members is crucial. Proactive psychological research has shown that organizational culture fit, person–job fit, and person–organization fit positively affect candidates' job satisfaction, job involvement, and commitment (Karl Wardlaw, 2019). Culture fit within a team incubates its culture and enforces social interaction while encouraging new approaches for both the team and organization.

Second, socialization processes act as two-way linkages where existing team members also learn from newcomers. Within existing team structures, developing a leadership pipeline is crucial for associating inexperienced leadership with existing team members.

4.3. Performance management and incentive alignment

Teams often treat particular aspects of performance as strategic priorities, so performance management involves periodic measurement and systems that provide a clear understanding of achievement. Regardless of the chosen measures, feedback loops must be maintained: circulating performance reports, conducting assessments and reviews, or establishing appraisals. Consequently, an effective performance management structure must encompass not only performance metrics but also multidisciplinary evaluation, communication, and reward mechanisms that can exploit, amplify, encourage, and propagate over time (Kim and Sly, 2010). Granting rewards based on collective performance repair the detrimental effects of team members pursuing selfish interests (Di Pietrantonio, 2018). Nevertheless, the longing for praise from supervisors, or the aspiration to outshine rivals, might constrict the sharing of information that external teammates contribute, despite all parties benefitting from such exchanges. To overcome the issue, a framework is thus presented in which players maintain their drives, yet stimulating cooperation remains feasible, alongside any complementarity in the inputs that multiple teams exogenously furnish (Drouvelis et al., 1970).

5. Gaps in the literature and future research

The literature on human capital and team performance is still developing and presents various challenges and opportunities. First, measurement error poses a severe problem. Given that human capital is rarely measured directly, the accuracy of proxy variables is an ongoing concern that can lead to erroneous conclusions (Totonchyfardmotlagh and Renato Peneluppi, 2017). Causality also remains unclear, especially where human capital endowments may be determined by personal characteristics or situational chance, rather than the deployment of individual or collective capabilities in teams. Furthermore, many studies deal with student or temporary teams in specific

industries or geographical areas. Insights from these narrow contexts do not necessarily generalize to longer-lived, organizational teams in other sectors (O'Connor, 2016).

Second, new data sources and analytical approaches open exciting new avenues of inquiry. Digital traces left during ordinary work practices provide extensive, fine-grained activity datasets on many fundamental constructs, including team composition, leadership, knowledge sharing, social capital, behavioral coordination, and team performance. Real-time sensing of verbal or non-verbal interactions yields rich insights into team dynamics, social networks, and other parameters relevant to human capital theory. Social media and other technologies facilitate information flow across internal or external organizational boundaries, and the structure of these interaction networks influences team productivity and innovation. Advanced econometric, statistical, and machine-learning techniques enable increasingly sophisticated modeling of these complex data sets, including network analysis, dynamic modeling, hidden Markov models, and agent-based simulation.

Significant methodological challenges persist in the examination of human capital and team performance, including measurement error, the establishment of causality, and the generalizability of results beyond particular settings. Human-capital components may be poorly captured when tools such as imperfect proxies, single-item survey questions, archives of dubious value, or composite indices with low reliability are employed. Many studies further assume a direct link from those components to team performance, neglecting the necessity of establishing that members share a given capability in order for it to influence collective functioning (D Ulrich, 2016). This oversight often arises from reliance on aggregate-level data to characterize organizational teams (O'Connor, 2016), despite broader interpretations being at odds with the prevailing focus on the detailed dynamics of human-capital creation, retention, and deployment within them. Such examinations have become increasingly pertinent due to the escalating importance of these teams in initiating new ventures, managing projects, and responding effectively to rapidly changing environments.

6. Conclusion

Human-capital endowments within organizational teams can be expected to exert a significant influence on team performance across multiple dimensions. Such endowments encompass member skills, knowledge, competencies, and experience. In turn, team performance may be assessed in terms of productivity, quality, coordination, and innovation. The aforementioned channels mediate the relationship between human capital and team performance. The first channel pertains to knowledge sharing and transfer, which can be affected by social-capital endowments and networks within the team. Such knowledge flows promote team-mate coordination and enhance overall team performance. The second channel involves skill and knowledge complementarities among team members. Teams comprising members with diverse and complementary yet relevant human-capital profiles are able to execute more complex tasks and achieve superior outcomes. Social-capital formation among team members can further augment complementarities. A third channel refers to leadership, coordination, and decision quality. Team leaders with substantial human-capital endowments are more proficient at directing member activities toward goal attainment. They are also better equipped to establish coordination mechanisms or escalation procedures among members engaged in interdependent activities. When coordination challenges arise, teams with leaders possessing deep relevant expertise can continue functioning smoothly. Furthermore, decisions taken by teams whose members command extensive experience or knowledge have a higher probability of being appropriate and innovative. Finally, a fourth, indirect

channel pertains to learning dynamics. Broadly, a team's human capital may enable a learning process characterized by continuous adaptation, improvement, and knowledge deepening.

Ten theoretical mechanisms spell out how human capital may influence team performance (O'Connor, 2016); (D Ulrich, 2016); (Totonchyfardmotlagh and Renato Peneluppi, 2017). Knowledge sharing and transfer within teams hinges on the knowledge possessed by individual members. Relevant knowledge can flow among members and be coordinated through social-capital networks. Mentoring by more knowledgeable members enhances knowledge acquisition and lowers the effective expertise level required for undertaking complex tasks. Network topologies and the cohesiveness of tacit-knowledge appropriation.

REFERENCES

1. O'Connor, R. "Towards an understanding of team dynamics in very small enterprises: an exploratory study in software development firms." 2016.
2. D Ulrich, M. "Articulating the Balance of Power: Comparing the Relative Weights of Human Capital Resources and Organizational Capabilities." 2016.
3. Di Pietrantonio, J. "A Computational Model of Team-based Dynamics in the Workplace: Assessing the Impact of Incentive-based Motivation on Productivity." 2018.
4. Tamara Bell, S. "Setting the stage for effective teams: a meta-analysis of team design variables and team effectiveness." 2004.
5. Sofia Sebastião Canha, R. "Managing talent through developmental job experiences (DJE): the mediating role of DJE between HPWS and employees' outcomes." 2015.
6. H. Johnston, J., L. Phillips, H., M. Milham, L., L. Riddle, D., N. Townsend, L., H. DeCostanza, A., J. Patton, D., R. Cox, K., and M. Fitzhugh, S. "A Team Training Field Research Study: Extending a Theory of Team Development." 2019.
7. Karl Wardlaw, M. "Effective Human Resources Recruiting and Hiring Practices for Improving Organizational Performance." 2019.
8. Kim, J. and Sly, N. "Job Mix, Performance Pay, and Matching Outcomes: Contracting with Multiple Heterogeneous Agents." 2010.
9. Drouvelis, M., Nosenzo, D., and Sefton, M. "Team incentives and leadership." 1970.
10. Totonchyfardmotlagh, A. and Renato Peneluppi, J. "Human Capital and the Firm Performance: A Review Paper." 2017.

XALQARO SANOAT KORXONALARI BOZORIDA MARKETING MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR

Musayeva Shoira Azimovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori
Orsid kod-0009-0000-9577-6976
https://doi.org/10.5281/zenodo.18629025

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mamlakatlar bo‘yicha to‘qimachilik sanoatini bozordaga o‘rni, barcha davlatlarda to‘qimachilik sanoatini rag‘batlantirish, Osiyo davlatlarida to‘qimachilik sanoatini qo‘llab-quvvatlash, O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini jahon bozorida o‘z o‘rnini topishi uchun xorijiy mamlakatlarning ijobiy tajribasini o‘rganish va qo‘llash ko‘rib chiqilgan.*
Kalitli so‘zlar: *Bozor, xorijiy tajriba, to‘qimachilik, tajriba, eksport, innovatsiya.*

Kirish. To‘qimachilik sanoati doimiy o‘sib borayotgan bozor bo‘lib, uning asosiy raqobatchilari Xitoy, Evropa Ittifoqi, AQSH va Hindiston hisoblanadi. Xitoy dunyodagi yetakchi to‘qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqaruvchi va eksportchisi hisoblanadi. Qo‘shma SHtatlar paxta xomashyosining etakchi ishlab chiqaruvchisi va eksportchisi hamda to‘qimachilik va kiyim-kechakning eng yirik importchisi hisoblanadi. Evropa Ittifoqining to‘qimachilik sanoati Germaniya, Ispaniya, Fransiya, Italiya va Portugaliyani o‘z ichiga oladi, ularning qiymati jahon to‘qimachilik sanoatining 1/5 qismidan ko‘proqni tashkil qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Milliy raqobatbardoshlikni oshirishdamavjud adabiyotlar tahlili bozorning zamonaviy tamoyillari, brendni targ‘ib qilish usullari va iste’molchilar talablariga moslashuvchan yondashuvni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Bozor strategiyalari haqida mutaxassis R.G.Ibragimov o’zining darsligida quyidagi fikrni yuritadi: “marketing strategiyasi deganda ma’lum muddatga belgilangan korxonaning bozordagi xatti-harakatlari tamoyilining modelidan foydalanish tushuniladi. Uning yordamida korxona o’z muvaffaqiyatini ta’minlashga intiladi”. Marketing strategiyasini rivojlantirish va ularni amalda qo‘llash bo‘yicha kuplab iqtisodchi olimlar shug‘ullanib kelgan Ular qatoriga F.Kotler, David Aeker, Klayton Christensen, Seth Godin, Kevin Keller, Byron Sharp, Jay Bayer kabi taniqli olimlarni kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimizda qator yillar davomida marketing sohasida olib borilgan izlanishlar milliy hususiyatlardan kelib chiqqan xolda marketing nazariyasini rivojlantirishga katta xissa qo‘shgan olimlarni ham e’tirof etish lozim. Bularga R.Ibragimov. YO.Abdullaev, A.Saliev, M.SHarifxo‘jaev, D.Raximova, SH.Ergashxodjaeva, Sh.Musayeva va boshqalarni kiritish mumkin .

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli yondashuv, marketing tahlili, taqqoslash va raqamli ko‘rsatkichlarni baholash usullari qo‘llanilgan. Ijtimoiy media platformalaridagi ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish uchun ommaviy kuzatuv usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Global Market Insights tahliliy agentligi hisobotini e’lon qildi, unga ko‘ra, 2021 yilda aqlli to‘qimachilik global bozori 2,147 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2030 yilga kelib bu ko‘rsatkich 16,4 milliard dollargacha o‘sadi. Boshqa manbalarga asoslanadigan

bo‘lsak, 2024 yilda ushbu bozorning hajmi 1,94 trln.AQSH dolllariga teng bo‘lib, prognoz bo‘yicha 2037 yilda 4,91 trln.AQSH dollariga etadi (1-rasm).

Ushbu rasmdan ko‘rinib turibdiki, to‘qimachilik bozorida paxtadan ishlab chiqarilgan maxsulotlar eng katta o‘rinni egallaydi (40%), mintaqalar ichida esa Osiyo-Tinch okean davlatlari ishlab chiqaruvchilar bozorining asosiy segmentlaridan biri bo‘lib hisoblanadi (52%).

Xitoy, 2024 yilda Xitoy dunyodagi eng yirik to‘qimachilik ishlab chiqaruvchisi va eksportchisi hisoblanadi. Jahon bozorining 30% dan ortig‘ini egallab, o‘z mahsulotlarini 200 dan ortiq mamlakat va mintaqalarga eksport qiladi.

Jahon savdo tashkiloti (JST) hisobotlariga ko‘ra, to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish bo‘yicha etakchi davlatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: Hindiston, mamlakat paxta, jun gazlama va ipak ishlab chiqarishga ixtisoslashgan; Niderlandiya. Gollandiya to‘qimachilik sanoati ishlab chiqaruvchilari raqamli bosib chiqarish va innovatsion bo‘yash usullaridan keng foydalanadilar; Buyuk Britaniya birlashgan qirolligi, undan jun, ipak, paxta, sintetik materiallar va turli sanoat tarmoqlari uchun maxsus gazlamalar eksport qilinadi; Ispaniya. Ispaniyadan paxta, jun, zig‘ir, shoyi va sintetik matolar jahon bozorlariga chiqadi; Pokiston. Mamlakat paxtaning katta zahiralariga ega, bu esa uni paxta materiallari ishlab chiqaruvchi etakchi davlatlardan biriga aylantiradi; SHri-Lanka. Mamlakat yuqori sifatli to‘qimachilik materiallari, jumladan, paxta, shoyi, sintetik, zig‘ir va jun matolarni ishlab chiqarish va eksport qilishga ixtisoslashgan.

SHu bilan birga to‘qimachilik va tikuv-trikotaj maxsulotlari jahon bozorida raqobat kuchli bo‘lishi aloida maxsulotlar bozoridan etakchilar doimiy o‘zgarib bormoqdalar. Mamlakatlar bo‘yicha to‘qimachilik sanoatini bozordaga o‘rnini ta’minlovchi omillarning o‘rganishga asosan barcha davlatlarda to‘qimachilik sanoatini rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli faoliyat olib borilmoqda. Ushbu siyosat ayniqsa Osiyo mintaqasida yaqqol ko‘rinadi. Taxlillar shuni ko‘rsatadiki, Osiyo davlatlarida to‘qimachilik sanoatini qo‘llab-quvvatlash asosan kichik va o‘rta biznesni, ayniqsa mikrotadbirkorlik korxonalarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini jahon bozorida o‘z o‘rnini topishi uchun xorijiy mamlakatlarning ijobiy tajribasini o‘rganish va qo‘llash maqsadga muvofiq. Bizlar davlat tomonidan to‘qimachilik sanoatini qo‘llab quvvatlar siyosatini ayrim davlatlar misolida ko‘rib chiqdik.

Xitoy Xalq Respublikasi. Xitoyning umumiy yalpi ichki mahsulotida tikuvchilik va to‘qimachilik sanoatining ulushi 11 foizdan oshadi. To‘qimachilik va tikuvchilik sanoatidan olinadigan soliq tushumlari Xitoyga mamlakat byudjetining 15-20% gacha daromad keltirish imkonini beradi. To‘qimachilik va tikuvchilik sanoati yengil sanoat sub tarmoqlarining eng katta ulushini egallab, Xitoy byudjetiga har beshinchi yuanni qo‘shadi. Hozirgi vaqtda Xitoyda 400 000 ga yaqin turli xil kiyim markalari ishlab chiqariladi, ularning 50% ga yaqini xorijiydir.

Xitoyning engil sanoat sohasidagi siyosati quyidagi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

- maxsus davlat fondini tashkil etish kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash;
- uchun imtiyozli soliq rejimini o‘rnatish ;
- amalga oshirish moliyaviy va kredit qo‘llab-quvvatlash;
- kichik tadbirkorlik sub’ektlarining davlat buyurtmalarini taqsimlashdan foydalanish imkoniyatini ta’minlash ;
- amalga oshirish boshqa rag‘batlantiruvchi voqealar.

Agar to‘qimachilik sanoatining alohida tadbirlarga e’tiborni qaratadigan bo‘lsak Xitoyning ushbu soxa korxonalarini qo‘llab-quvvatlashning quyidagi yo‘nalishlarni ko‘rsatish mumkin:

1) kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus davlat jamg'armasini tashkil etish;

2) kichik biznes sub'ektlarining davlat buyurtmalarini taqsimlashdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash (KO'B sub'ektlariga davlat xaridlarining yillik byudjetining kamida 30 foizi beriladi);

3) kichik va o'rta biznesning o'zini ham, ularga berilgan kreditlarning qaytarilishini kafolatlovchi tuzilmalarni ham qo'llab-quvvatlash mexanizmi

4) eksportni qo‘llab-quvvatlash: eksport qilinadigan engil sanoat mahsulotlarining ko‘p turlari bo‘yicha soliqlarni qaytarish stavkasini doimiy ravishda oshirish (tikuv, to‘qimachilik va boshqalar);

5) ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish uchun mablag‘lar ajratish;

6) Xitoyning janubi-sharqiy qismidan markaziy va g‘arbiy mintaqalarga ishlab chiqarish quvvatlarini ko‘chiruvchi korxonalarni rag‘batlantirish choralari ko‘riladi;

7) shahar va qishloq iste’molini kengaytirish va engil sanoat mahsulotlarini ichki bozorga etkazib berish samaradorligini oshirish;

8) tashqi savdo xizmatlarini takomillashtirish, engil sanoat mahsulotlari eksport bozoridagi ulushini saqlab qolish.

Hindiston. Hindiston 4 turdagi ipak ishlab chiqaradigan yagona davlatdir. Hindiston 34,9 ming tonna ipak ishlab chiqarish bilan dunyoda Xitoydan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. To‘qimachilik va tikuvchilik sanoati mamlakat yalpi ichki mahsulotining 2,3 foizini, sanoat mahsulotining 13 foizini, eksportning 12 foizini tashkil qiladi. Hindiston to‘qimachilik va kiyim-kechak bozori yillik o‘rtacha 10 foizga o‘sib, 2030-yilga borib 350 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, Hindiston yalpi ichki mahsulotidagi sanoat ulushi esa ikki baravar oshib, 5 foizga etishi kutilmoqda. Ushbu tendensiya sanoatning barcha tarmoqlarida keng tarqalgan bo‘lib, avtomobilsozlik sanoati uchun texnik to‘qimachilik bozori 2020 yildagi 2,4 milliard dollardan 2027 yilga kelib 3,7 milliard dollargacha o‘sishi kutilmoqda.

Bugungi kunda Hindiston, IBEF ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi uchinchi yirik to‘qimachilik va kiyim-kechak eksportchisi va jahon miqyosida texnik to‘qimachilik uchun beshinchi yirik bozordir. Eksport 2024 yilda 36 milliard dollarni tashkil etdi, bu Hindistonning umumiy eksport daromadining 12 foizini tashkil etdi.

Hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan dasturlar qatoriga to‘qimachilik ishlab chiqarish va eksportini mahalliylashtirishni rag‘batlantiradigan Make in India va Aatmanirbhar Bharat Abhiyan kiradi. Skill India ta’lim muassasalariga ixtisoslashtirilgan dasturlarni yaratish uchun subsidiyalar beradi. Texnik to‘qimachilik sohasini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus dastur, Milliy texnik to‘qimachilik missiyasi mavjud.

Hindistonda to'qimachilik eksportini rivojlantirish uchun to'qqizta Kengash tashkil etilgan. Har bir Kengash ma'lum bir mahsulot turini targ'ib qiladi va hind tovarlarini sotish imkoniyatlarini nazorat qiladi. To‘qimachilik korxonalariga davlat tomonidan yordam ko‘rsatish uchun turli mexnazimlar va jamg‘armalar tashkil qilingan:

Texnologiyalarni yangilash fondi sxemasi (TUFS) ishlab chiqaruvchilarga davlat kompensatsiyasi va subsidiyalar berish;

Integratsiyalashgan to‘qimachilik parklari sxemasi (SITP) doirasida hukumatning roli mazkur texnoparklarni tashkil etish;

Kasanachilikda to‘quvchi va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Mega klasterni rivojlantirish” sxemasini joriy qilish;

Integratsiyalashgan ko‘nikmalarni rivojlantirish sxemasi (ISDS) to‘qimachilik sanoatida ishlaydigan ishchilarning malakasini oshirish.

Bugungi kunda hukumat hududlarda faoliyat yuritayotgan korxonalarga soliq imtiyozlari va subsidiyalar berish orqali ixtisoslashtirilgan sanoat zonalarini tashkil etishga ko‘maklashmoqda. Masalan, 2023 yil avgust oyida hukumat yangi va mavjud korxonalarda ettita PM Integrated To‘qimachilik va tikuvchilik parkini (PM MITRA) yaratishni ma’qulladi. IBEF ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu bog‘lar 2027–2028-yillarga borib 535 million dollar sarmoyani o‘z ichiga olgan holda jahon darajasidagi infratuzilmaga ega bo‘ladi.

Bangladesh. To‘qimachilik sanoati Bangladeshda asosiy tarmoq bo‘lib, mamlakatda 3500 ta tikuvchilik fabrikasi mavjud. Bangladesh global to‘qimachilik va tikuvchilik savdosida muhim rol o‘ynaydi va global to‘qimachilik ta’minot zanjirining asosiy bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi.

Bangladeshning to‘qimachilik va tikuvchilik sanoati mamlakat iqtisodiyotining asosini tashkil etib, jahon bozoriga salmoqli hissa qo‘shmoqda.

Mamlakatning to‘qimachilik bozoridagi roli haqida ma’lumotlar: yirik xalqaro brendlarning kiyim-kechaklarini ishlab chiqarish. Bangladeshda Adidas, Levi’s, Calvin Klein, Zara, H&M va boshqa brendlarning kiyimlari ishlab chiqariladi. Tayyor tikuvchilik mahsulotlarini eksport qilish. 2024-yil dekabr oyi oxiriga kelib Bangladesh tikuvchilik sanoati eksportdan 50 milliard dollar daromad oldi, bu o‘tgan yilga nisbatan 8,3 foizga ko‘pdir. Mamlakat eksport savdosida tayyor tikuvchilik mahsulotlarining ustunligi. Jahon brendlarining Bangladesh zavodlariga qaramligi. Yirik xalqaro kompaniyalar o‘zlarining ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish uchun ko‘p jihatdan Bangladesh zavodlariga bog‘liq.

To‘qimachilik sanoati bir necha sabablarga ko‘ra Bangladesh iqtisodiyotining muhim tarmog‘idir:

• To‘qimachilik va tikuvchilik maxsulotlari eksporti valyuta tushumlarining asosiy manbai hisoblanadi. Mamlakatning eksportni rag‘batlantirish byurosi (EPB) ma’lumotlariga ko‘ra, Bangladeshdagi tikuvchilik sanoati 2024-yil dekabr oyi oxiriga kelib eksportdan 50 milliard dollar daromad oldi, bu o‘tgan yilga nisbatan 8,3 foizga o‘sdi;

• Arzon ishchi kuchining mavjudligi. Aholining yuqori zichligi sanoat sektori uchun arzon ishchi kuchini ta’minlaydi. Bu mahsulot tannarxiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;

• Har xil turdagi mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalarning rivojlanganligi. Ko‘pgina fabrikalar trikotaj matolar, to‘qilgan matolar va iplar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan;

• Sohada to‘plangan tajriba. Mamlakat sanoatni 1970-yillarning o‘rtalaridan boshlab rivojlantirmoqda va unda to‘qimachilik sanoati katta xissa qo‘shgan. Keyingi yillarda to‘qimachilik sanoatiga ixtisoslashuv mamlakatning strategiyasidan muhim o‘rin egallagan;

• Ayollarni ish bilan ta’minlash imkoniyatlari. Tikuvchilik sektori ilgari rasmiy ishchi kuchining bir qismi bo‘lish imkoniga ega bo‘lmagan qishloq ayollari uchun ish bilan ta’minlangan. Tikuv sanoati Bangladesh umumiy eksport tushumining 80% dan ortig‘ini tashkil qiladi va mamlakat YAIMning 11% ga yaqin hissasini qo‘shadi. Uning eksporti 2001 yildagi 5 milliard dollardan 2023 yilda qariyb 40 milliard dollargacha o‘sdi.

Pokiston. Pokiston eng yirik to‘qimachilik davlatlaridan biri bo‘lib, yiliga 31 milliard dollarlik to‘qimachilik mahsulotlarini asosan Evropa va AQSH bozorlariga eksport qiladi va

to‘qimachilik sanoati yaxshi rivojlangan. Mamlakatda GSP+ tizimi ham mavjud, jahon qiymat zanjiriga qo‘shilgan va mashhur brendlarga mahsulot etkazib beradi. Bu mamlakat engil sanoatining eng yirik segmenti va dunyodagi eng yiriklaridan biridir.

To‘qimachilik sanoati Pokiston yalpi ichki mahsulotining 8,5 foizini tashkil qiladi. To‘qimachilik mahsulotlari eksporti mamlakat umumiy eksportining salmoqli qismini tashkil etadi. To‘qimachilik sanoatida mamlakat sanoatida band bo‘lganlarning qariyb uchdan bir qismi ishlaydi.

Pokiston bir necha sabablarga ko‘ra Osiyodagi yirik to‘qimachilik ishlab chiqaruvchilardan biri hisoblanadi:

O‘z xomashyo bazasi. To‘qimachilik sanoatida qo‘llaniladigan materiallarning asosiy qismi (paxta tolasi, jun, tayyor gazlamalar) Pokistonning o‘zida ishlab chiqariladi. Bu ishlab chiqarish xarajatlarining pastligini va ularning jahon bozorida raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Ishlab chiqarish quvvati. Mamlakatda paxta tozalash, yigiruv fabrikalari, yirik va kichik to‘qimachilik va tikuvchilik fabrikalari mavjud.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xilma-xilligi. Pokistonning to‘qimachilik korxonalari paxta, jun, zig‘ir, shoyi, turli rangdagi, teksturali va naqshli sintetik matolarni eksport qiladi.

Maxsus bilim va tajriba. Pokiston funksional to‘qimachilik, shu jumladan kumush tolalarni ishlab chiqarish bo‘yicha maxsus bilimlarni to‘plagan.

Vetnam. Vetnamda to‘qimachilik va tikuv sanoatida etti mingdan ortiq korxonalar faoliyat ko‘rsatib, ularda uch milliondan ortiq axoli band qilingan. Ishlab chiqariladigan maxsulotning 80%dan ortig‘i eksportga yo‘naltirilgan – 2023 yilda kiyim eksporti qariyb 44 mlrd AQSH dollarini tashkil qilib oldingi yilga nisabatan 11,26%ga oshgan. SHu bilan birga Vetnamning to‘qimachilik va tashqi omillarga kattiq bog‘langan, natijada 2024 yilda eksportning keskin pasayishi kuztaligan. To‘qimachilik sanoatini qo‘llab-quvvatlash va eksport pasayishini to‘xtatish uchun davlat tomonidan quyidagi choralar qo‘rilmoqda: to‘qimachlik korxonalarida yangi, yuqori unumli texnologiyalarni qo‘llash uchun moddiy va moliyaviy sharoitlar yaratish, ichki xarajatlarni kamaytirish choralarini ko‘rish, eksportchilar uchun sharoitlar yaratib berish, sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

Evropa Ittifoqi davlatlari. Evropa Ittifoqi mamlakatlarida sanoatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash gorizontal xarakterga ega, jumladan, iqtisodiy chora-tadbirlar va tartibga solish choralari va engil sanoat sektoriga maxsus qo‘llanilmaydi.

SHu bilan birga, sanoatni, shu jumladan engil sanoatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning makroiqtisodiy chora-tadbirlari quyidagilardan iborat: soliq siyosatini takomillashtirish (shu jumladan soliq imtiyozlari va soddalashtirishlar); pul-kredit siyosatini takomillashtirish (kredit imtiyozlari berish); bojxona siyosatini takomillashtirish (engil sanoat korxonalariga xorijiy investitsiyalar uchun imtiyozlar); eksportni qo‘llab-quvvatlash (eksport kreditlari va davlat kafolatlari); Evropa Ittifoqi doirasida biznes infratuzilmasini yaratish va hamkorlikni takomillashtirish.

Mikrodarajada, bu, birinchi navbatda, kichik va o‘rta korxonalarni qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan raqobatni rag‘batlantirish siyosati, ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish, moliyaviy resurslarga kirishni yaxshilash, tovarlar va kapital eksporti uchun imtiyozlar va tashqi bozorlarda qo‘llab-quvvatlashdir.

To‘qimachilik va tikuv sanoati rivojlangan Ispaniya davlatini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 2024 yilda mamlakat korxonalarining tovar aylanmasi 49-50 mlrd evro atrofida bo‘lgan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shilgan qiymat esa 9,2–9,5 mlrd evroga etgan. Ispaniya to‘qimachilik sanoatining

barqaror rivojlanishi quyidagi omillarga asoslanadi:

-barqaror xom ashyo materiallari:ishlab chiqarishda ekologik toza, qayta ishlovga berilgan xom ashyodan foydalanishni kengaytirish, masalan, qayta ishlangan paxta, plastik qoldiqlarini qayta shilash xom ashyosi, barqaro standartlaga asoslangan ipak va jun va boshqalar;

-ishlab chiqarish jarayonini maksimal tejamkorlikka qaratish. To‘qimachilik korxonalarida ISO 14001-ekologik menejment tizimilarini joriy qilishda qimmatlashaetgan energiya resurslarini tejash, chiqindilarni kamaytirish, suv va boshqa tabiiy resurslarning sarfini kamaytirishga qaratilgan ilmiy-texnologik innovatsiyalar kiritilmoqda.

Bugungi kunda Ispaniya to‘qimachilik sanoatida aylanma iqtisodiyotni joriy qilish, uglerod chiqishini kamaytirish, xarajatlarni boshqarish va maxsulot etkazib berishni optimallashtirish, txenologik rivojlanishni rag‘batlantirish kabi tendensiyalar kuzatilmoqda.

YUqoridiga mamlakatlarning tajribasi shundan dalolat beradiki, bugungi kunda jahon bozoridagi raqobatchilarni engish uchun to‘qimachilik sanoatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash asosiy turtkilardan biriga aylanmoqda.

Xulosa.

To‘qimachilik va tikuv-trikotaj maxsulotlarini ishlab chiqarish sanoati mamlakatimiz iqtisodiyotida etakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Uning ishlab chiqaradigan sanoatidagi ulushi 17%ga yaqin bo‘lib ekasport salohiyati yuqori tarmoqlardan hisoblanadi. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati mahalliy qishloq xhajik maxsulotlarini chuqur qayta ishlash, aholini ish o‘rinlar bilan ta’minlash kabi yirik vazifalarni bajarishda ham salmoqli xissa qo‘shib keladi.

To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati bir qancha o‘ziga xos hususiyatlarga ega bo‘lib uning jahon bozorida barqaror raqobatbardoshligini ta’minlash davlat tomonidan tizimli qo‘llab-quvvatlanishini talab qiladi. 2019 yildan bugungi kungacha, mamlakatimiz Prezidenti tomonidan sohaga investitsiyalar kiritish, ishlab chiqaruvchilarga imtiyozlar berish, xalqaro logistik tizimlarni yaratishga qaratilgan qulay muhit yaaratib berilgan.

To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati maxsulotlarining o‘ziga xosligi, tarmoqdagi korxonalarning hususiyatlari marketing faoliyatining mazmuni va tarkibiy elementlariga katta ta’sir ko‘rsatadi.

To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarining tasnifini quyidagi belgilari bo‘yicha amalga oshirish mumkinligi aniqlandi: korxona turi, bozor turi, bozor pozitsiyasi. Hususan, barcha korxonalarni uchta yirik guruhga ajratish mumkinligi aniqlandi: ip-kalava yigirish ishlab chiqarishi (IK), to‘qimachilik (T) va tayyor tikuv-trikotaj maxsulotlarini (TT) ishlab chiqarish korxonalari. Bozor turi bo‘yicha iste’mol bozorga, korxnalar bozoriga va xorijiy bozorga yo‘naltirilgan korxonalar. Korxonaning bozor pozitsiyasi yuqori, o‘rta va past darajada bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston uchun xalqaro bozorda marketing faoliyatini jadallashtirishda to‘qimachilik sohasida etakchi o‘rinni egallab kelayotgan Osiyo mamlakatlarining tajribasini o‘rganish, ularning rivojlanish omillarini taxlil qilish katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, korxonalarning faol marketing tizimi va davlat tomonidan sohani qo‘llab quvvatlashning uyg‘unlashishi qulay marketing muhiti va samarali marketing faoliyatining garovi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.03.2021 yildagi 166-son.

2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini himoya qilish mamlakat taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. - T .: O'zbekiston, 2017.- 48 b.
1. Mirziyoev Sh.M. Biz buyuk kelajakni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. - T .: O'zbekiston, 2017.- 488 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. - Xalq nutqi, 2020-yil 26-yanvar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.
4. Azimovna, M. S. (2022). Professor of Samarkand Institute of Economic and Service,Samarkand, Uzbekistan. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, *1*(9), 20-23.
5. Musayeva, S., & Usmanov, F. (2022). Ways to develop marketing activities in tourist organizations. *Science and innovation*, *1*(A5), 84-88.
6. Azimovna, M. S., Ilkhomovna, U. D., & Shokhrukhovich, U. F. (2022). Issues of improving productivity competition in agriculture. *ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali.-2022.-C*, 51-53.
7. Azimovna, M. S., Ilkhomovna, U. D., & Shokhrukhovich, U. F. (2022). The role of marketing in increasing the economic efficiency of service enterprises.
8. Azimovna, M. S., Ilkhomovna, U. D., & Shokhrukhovich, U. F. (2022). The concept of a correct marketing policy in trade and service enterprises.
9. Musayeva, S. (2022). Studying the organization of advertising activities ofgoodsat" samarkand tea packaging factory" JSC. *Science and innovation*, *1*(A6), 185-192.
10. Musayeva, S. (2022). Prospects for the development of" stekloplastik" llc activity in the conditions of the market economy. *Science and innovation*, *1*(A6), 539-546.
11. Azimovna, M. S., Ilkhomovna, U. D., & Shokhrukhovich, U. F. (2022). Importance and Characteristics of Brand Choice in Services. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 1-3.
12. Musaeva Sh. A. Marketing tadqiqotlari. Darslik “STAR-SEL” MChJ nashriyot va ijodiy bo‘limi. Samarqand–2023
13. Musaeva Sh. A. Integrallashtirilgan marketing kommunikatsiyasiO‘quv qo‘llanma “Mahorat” nashriyoti, Samarqand –2022.

TIJORAT TIBBIYOT MARKAZLARI SOHASIDA TIBBIY XIZMATLAR BOZORIDAGI RAQOBAT SHAROITI HAMDA ISTE'MOLCHILAR TANLOVIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li
Guliston davlat universiteti mustaqil tadqioqtchisi, I.f.f.d., PhD.
https://doi.org/10.5281/zenodo.18632246

Anotatsiya. *Mazkur maqolada tijorat tibbiyot markazlari sohasida tibbiy xizmatlar bozorining raqobat muhiti hamda iste'molchilarning tibbiy xizmatlarni tanlashiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida xususiy tibbiyot muassasalarining bozor sharoitidagi o'rni, xizmatlar sifati, narx siyosati, kadrlar salohiyati, servis darajasi va innovatsion texnologiyalarning iste'molchi tanlovidagi ahamiyati o'rganiladi. Shuningdek, iste'molchilarning ehtiyojlari va afzalliklarini shakllantiruvchi omillar aniqlanib, raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Maqola natijalari tijorat tibbiyot markazlari faoliyatini takomillashtirishda hamda tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *tijorat tibbiyot markazlari, tibbiy xizmatlar bozori, raqobat muhiti, iste'molchi tanlovi, xizmat sifati, narx siyosati, xususiy tibbiyot, raqobatbardoshlik, servis xizmati.*

Abstract. *This article analyzes the competitive environment of the medical services market in the field of commercial medical centers and the main factors influencing the choice of medical services by consumers. During the study, the role of private medical institutions in the market, the quality of services, pricing policy, human resources, service level and the importance of innovative technologies in consumer choice are studied. Also, the factors shaping the needs and preferences of consumers are identified, and scientific and practical recommendations are developed to increase competitiveness. The results of the article are of great importance in improving the activities of commercial medical centers and developing the medical services market.*

Keywords: *commercial medical centers, medical services market, competitive environment, consumer choice, service quality, pricing policy, private medicine, competitiveness, service.*

Аннотация. *В данной статье анализируется конкурентная среда рынка медицинских услуг в сфере коммерческих медицинских центров и основные факторы, влияющие на выбор медицинских услуг потребителями. В ходе исследования изучается роль частных медицинских учреждений на рынке, качество услуг, ценовая политика, кадровые ресурсы, уровень обслуживания и важность инновационных технологий в выборе потребителей. Также определены факторы, формирующие потребности и предпочтения потребителей, и разработаны научно-практические рекомендации по повышению конкурентоспособности. Результаты статьи имеют большое значение для совершенствования деятельности коммерческих медицинских центров и развития рынка медицинских услуг.*

Ключевые слова: *коммерческие медицинские центры, рынок медицинских услуг, конкурентная среда, потребительский выбор, качество обслуживания, ценовая политика, частная медицина, конкурентоспособность, сервис*

Kirish. So‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida tibbiy xizmatlar bozorida tijorat tibbiyot markazlarining ulushi tobora ortib bormoqda. Aholining sifatli, tezkor va zamonaviy tibbiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojining oshishi xususiy tibbiyot muassasalarining faol rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Mazkur jarayon tibbiy xizmatlar bozorida raqobat muhitining kuchayishiga, xizmatlar xilma-xilligining kengayishiga hamda iste’molchilar tanlov imkoniyatlarining ortishiga olib kelmoqda. Tijorat tibbiyot markazlari nafaqat davlat tibbiyot muassasalariga muqobil sifatida, balki xizmatlar sifati, servis darajasi, texnologik jihozlanish va kadrlar salohiyati bo‘yicha raqobatbardosh subyektlar sifatida maydonga chiqmoqda. Shu bilan birga, tibbiy xizmatlar bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish iste’molchilarning ehtiyojlari, xohish-istaklari hamda tanloviga ta’sir etuvchi omillarni chuqur o‘rganishni talab etadi. Iste’molchilarning tijorat tibbiyot markazlarini tanlashida xizmatlar sifati, narx siyosati, shifokorlar malakasi, xizmat ko‘rsatish madaniyati, qulaylik darajasi va innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillarni tahlil qilish raqobat muhitini to‘g‘ri baholash, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish hamda tijorat tibbiyot markazlarining bozor pozitsiyasini mustahkamlash imkonini beradi. Shu munosabat bilan, mazkur maqolada tijorat tibbiyot markazlari sohasida tibbiy xizmatlar bozoridagi raqobat sharoiti hamda iste’molchilar tanloviga ta’sir etuvchi asosiy omillarni ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb masala sifatida belgilab olinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tijorat tibbiyot markazlari faoliyati va tibbiy xizmatlar bozoridagi raqobat muhitini o‘rganishda tizimli yondashuv asosida iqtisodiy tahlil, taqqoslash, statistik ma’lumotlarni umumlashtirish hamda mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, iste’molchilar tanloviga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida so‘rovnoma va ekspert baholash metodlari qo‘llanildi. Olingan natijalar asosida xulosalar chiqarilib, tijorat tibbiyot markazlarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Adabiyotlar sharhi. Tibbiy xizmatlar bozorida raqobat muhitini o‘rganish masalasi salohiyatli ilmiy izlanishlar obyekti bo‘lib, xorijiy adabiyotlarda bu soha bo‘yicha turli yondashuvlar va xulosalar mavjud. Masalan, sog‘liqni saqlash bozorida raqobatning rivojlanishi ham xizmat ta’minoti shakllanishiga, ham xizmat sifati va samaradorligiga ta’sir etishini ko‘rsatgan tadqiqotlar mavjud bo‘lib, raqobatning boshqaruv mexanizmlari, uning bozor tuzilmasiga ta’siri hamda sog‘liqni saqlashni moliyaviy jihatdan optimallashtirish yo‘nalishlari keng tahlil qilingan. Shu bilan birga, raqobat intensivligi va bemorlar qoniqishiga bog‘liq tadqiqotlar raqobatning yuqori sifati, narx-sifat nisbati va bemorlar tanlovi o‘rtasidagi munosabatni yoritadi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sog‘liqni saqlash sohasida raqobat ortishi sifatni yaxshilash, innovatsiyalarni rag‘batlantirish, samaradorlikni oshirish va xarajatlarni nazorat qilishga xizmat qiladi, xususan bozor mexanizmlarining bemor tanloviga ijobiy ta’siri muhim omil sifatida ajratiladi.

Mahalliy ilmiy va amaliy manbalarda O‘zbekistonda xususiy tibbiyot sektorining kengayishi, uning raqobat muhiti va mijoz ehtiyojlariga ta’siri haqida ko‘plab e’tibor qaratilgan. Bugungi kunda xususiy klinikalar sonining sezilarli darajada ortgani va xususiy sektorning tibbiy xizmatlar bozoridagi ulushi oshgani qayd etilmoqda, bu esa raqobat sharoitining shakllanishi hamda xizmat sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, sohada qonunchilik talablariga rioya etish, shaffof narxlash va iste’molchiga axborot yetkazib berish bo‘yicha monitoringlar ham amalga oshirilmoqda, bu esa iste’molchi huquqlari va raqobatning adolatliligi masalalarini ilgari suradi. Mahalliy ilmiy adabiyotlarda tibbiy xizmatlar bozorida raqobatning iqtisodiy mexanizmlari, erkin narx belgilash va bozor munosabatlari bo‘yicha ham umumiy nazariy yondashuvlar mavjud.

Tahlil va natijalar. Tijorat tibbiyot markazlari faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tibbiy xizmatlar bozorida raqobat muhiti tobora kuchayib bormoqda va bu jarayon iste’molchilar tanlovining kengayishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususiy tibbiyot muassasalari sonining ortishi, xizmatlar turlarining diversifikatsiyalashuvi hamda zamonaviy diagnostika va davolash texnologiyalarining joriy etilishi bozor ishtirokchilari o‘rtasida sifat va servis asosidagi raqobatni shakllantirmoqda. Mazkur holat iste’molchilarning tibbiy xizmatlarga nisbatan talabchanligini oshirib, ularning tanlov mezonlarini yanada murakkablashtirmoqda.

O‘tkazilgan tahlillar natijasida iste’molchilarning tijorat tibbiyot markazlarini tanlashida bir qator asosiy omillar yetakchi o‘rin egallashi aniqlandi. Jumladan, xizmatlar sifati va shifokorlar malakasi eng muhim mezon sifatida baholanadi. Iste’molchilar ko‘proq yuqori professional darajaga ega mutaxassislar faoliyat yuritadigan, aniq tashxis qo‘yish va samarali davolashni ta’minlay oladigan markazlarga ustunlik bermoqda. Shu bilan birga, tibbiy xizmatlar narxi va uning sifatga mosligi ham tanlov jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, servis darajasi, bemorlarga munosabat, qabul jarayonining qulayligi va xizmat ko‘rsatish tezligi iste’molchi qoniqishiga bevosita ta’sir etuvchi omillar hisoblanadi. Ayniqsa, elektron navbat, onlayn maslahatlar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish tijorat tibbiyot markazlarining raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim ustunlik sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunday yondashuvlar iste’molchilarning vaqtini tejashga xizmat qilib, xizmatlardan foydalanish qulayligini oshirmoqda.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, tijorat tibbiyot markazlarida raqobatning kuchayishi xizmatlar sifatining oshishiga, innovatsion yondashuvlarning keng joriy etilishiga va iste’molchilarning ehtiyojlariga moslashuvchanlikning ortishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, raqobat muhiti tibbiy xizmatlar bozorida narxlarning nisbatan barqarorlashuviga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Umuman olganda, tahlil natijalari tijorat tibbiyot markazlarining samarali faoliyati iste’molchilar tanloviga bevosita bog‘liq ekanini va raqobatbardoshlikni oshirish uchun xizmat sifati, servis darajasi hamda innovatsion rivojlanish asosiy ustuvor yo‘nalishlar bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot doirasida tijorat tibbiyot markazlari xizmatlaridan foydalanuvchi iste’molchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovda turli yosh va ijtimoiy guruhlarga mansub respondentlar ishtirok etdi. Tadqiqot natijalari iste’molchilarning tijorat tibbiyot markazlarini tanlashida ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash imkonini berdi.

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, iste’molchilar tanloviga eng kuchli ta’sir etuvchi omil sifatida xizmatlar sifati va shifokorlar malakasi qayd etilgan. Respondentlarning katta qismi tibbiy xizmatlar sifatini birlamchi mezon sifatida baholagan bo‘lib, bu tijorat tibbiyot markazlari faoliyatida professional kadrlar va sifat nazoratining muhimligini tasdiqlaydi.

1-jadval

Tijorat tibbiyot markazlarini tanlashga ta’sir etuvchi omillar

Omillar	Ulushi (%)
Xizmatlar sifati va shifokorlar malakasi	38
Narx va sifat mutanosibligi	22
Servis darajasi va qulayliklar	17
Zamonaviy texnologiyalar	13
Hududiy qulaylik (joylashuv)	10

Jami	**100**

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, narx omili iste’molchilar tanlovida muhim bo‘lsa-da, u xizmat sifati bilan solishtirilganda ikkilamchi ahamiyat kasb etadi. Bu holat iste’molchilarning tibbiy xizmatlarda arzonlikdan ko‘ra ishonchlilik va samaradorlikka ustuvorlik berishini ko‘rsatadi. Natijalarga ko‘ra, respondentlarning aksariyati xizmatlardan yuqori yoki o‘rtacha darajada qoniqqanligini bildirgan. Bu holat bozor sharoitida raqobatning kuchayishi xizmat ko‘rsatish darajasining yaxshilanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini anglatadi.

2-jadval

Iste’molchilarning tibbiy xizmatlardan qoniqish darajasi

Qoniqish darajasi	Ulushi (%)
Yuqori darajada qoniqqan	41
O‘rtacha darajada qoniqqan	37
Qisman qoniqqan	15
Qoniqmagan	7
Jami	**100**

Mazkur jadval iste’molchilar qoniqishining yuqori darajada ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, qisman qoniqmagan va qoniqmagan respondentlar mavjudligi tijorat tibbiyot markazlari faoliyatida servis sifati, narx shaffofligi va muloqot madaniyatini yanada takomillashtirish zarurligini anglatadi.

Umuman olganda, empirik tahlil natijalari tijorat tibbiyot markazlari bozorida raqobat muhiti iste’molchilar manfaatlarini hisobga olgan holda shakllanayotganini ko‘rsatadi. Xizmat sifati, kadrlar salohiyati, servis darajasi va innovatsion texnologiyalar raqobatbardoshlikni belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘tkazilgan tadqiqot va empirik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tijorat tibbiyot markazlari tibbiy xizmatlar bozorida muhim raqobat subyekti sifatida shakllanib bormoqda. Raqobat muhitining kuchayishi xizmatlar sifati, servis darajasi va innovatsion yondashuvlarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, iste’molchilarning tijorat tibbiyot markazlarini tanlashida xizmatlar sifati va shifokorlar malakasi yetakchi omil bo‘lib, narx omili esa sifatga mosligi bilan baholanmoqda. Bu holat iste’molchilarning tibbiy xizmatlarda ishonchlilik va samaradorlikni ustuvor deb bilishini tasdiqlaydi.

Empirik ma’lumotlar iste’molchilarning aksariyati tibbiy xizmatlardan yuqori va o‘rtacha darajada qoniqayotganini ko‘rsatsa-da, qisman qoniqmagan va qoniqmagan respondentlar ulushining mavjudligi tijorat tibbiyot markazlari faoliyatini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, servis sifati, bemorlar bilan muloqot madaniyati, xizmat ko‘rsatish tezligi hamda narx siyosatining shaffofligi iste’molchi qoniqishiga bevosita ta’sir etuvchi muhim omillar sifatida aniqlangan.

Olingan xulosalarga asoslanib, tijorat tibbiyot markazlari faoliyatini rivojlantirish maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, shifokorlar va tibbiyot xodimlarining malakasini muntazam oshirish, zamonaviy davolash va diagnostika usullarini amaliyotga joriy etish orqali xizmatlar sifatini yanada yaxshilash zarur. Ikkinchidan, narx siyosatini shakllantirishda xizmat sifati va iste’molchi kutishlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash, narxlar shaffofligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, servis darajasini oshirish maqsadida elektron navbat tizimlari, onlayn maslahatlar va raqamli xizmatlardan keng foydalanish tavsiya

etiladi. To‘rtinchidan, iste’molchilar bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish, ularning fikr-mulohazalarini muntazam o‘rganish va takliflarini hisobga olish orqali xizmat ko‘rsatish jarayonini takomillashtirish lozim.

Umuman olganda, tijorat tibbiyot markazlarining barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta’minlash iste’molchilar ehtiyojlariga moslashuvchanlik, xizmatlar sifatini doimiy oshirib borish hamda innovatsion yondashuvlarni faol qo‘llash bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur tadqiqot natijalari tibbiy xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish va tijorat tibbiyot markazlari faoliyatini samarali tashkil etishda ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqotda tijorat tibbiyot markazlari sohasida tibbiy xizmatlar bozoridagi raqobat muhiti hamda iste’molchilar tanloviga ta’sir etuvchi omillar ilmiy jihatdan tahlil qilindi. O‘tkazilgan tahlil va empirik tadqiqotlar natijalari tibbiy xizmatlar bozorida xususiy tibbiyot muassasalarining roli tobora ortib borayotganini hamda raqobat muhitining kuchayishi xizmatlar sifati va servis darajasining yaxshilanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatdi. Iste’molchilarning tijorat tibbiyot markazlarini tanlashida xizmatlar sifati va shifokorlar malakasi asosiy mezon bo‘lib, narx omili esa xizmat sifatiga mosligi bilan baholanayotgani aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, servis darajasi, qulayliklar, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hamda xizmat ko‘rsatish tezligi iste’molchi qoniqishini shakllantiruvchi muhim omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim iste’molchilarning qisman qoniqmaganligi tijorat tibbiyot markazlari faoliyatida xizmat ko‘rsatish madaniyati, narx siyosatining shaffofligi va bemorlar bilan muloqotni yanada takomillashtirish zarurligini anglatadi.

Umuman olganda, tijorat tibbiyot markazlarining raqobatbardoshligini oshirish xizmatlar sifatini doimiy ravishda yaxshilash, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur tadqiqot natijalari tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirish, iste’molchilar manfaatlarini himoya qilish hamda tijorat tibbiyot markazlari faoliyatini samarali tashkil etishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

3-jadval

Tijorat tibbiyot markazlarida aniqlangan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar

1	Xizmat sifati va shifokorlar malakasi yetakchi omil	38 % iste’molchi asosiy mezon sifatida baholagan	Shifokorlar malakasini oshirish kurslari va doimiy attestatsiya tizimini joriy etish	Xizmat sifati oshishi, iste’molchi ishonchi kuchayishi
2	Narx va sifat mutanosibligidan qoniqmaslik	22 % narx omilini muhim deb belgilagan	Narx siyosatini shaffoflashtirish va paketli xizmatlarni joriy etish	Narxga nisbatan e’tirozlar kamayishi
3	Servis va qulayliklar yetarli emasligi	17 % servisni tanlov omili deb ko‘rsatgan	Elektron navbat, onlayn ro‘yxatdan o‘tish tizimlarini kengaytirish	Kutish vaqti qisqarishi, qoniqish darajasi oshishi

4	Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yetarli emas	13 % texnologiyani muhim deb baholagan	Diagnostika va davolashda innovatsion texnologiyalarni joriy etish	Tashxis aniqligi va davolash samaradorligi oshishi
5	Hududiy qulaylik va logistika muammolari	10 % joylashuvni muhim omil deb baholagan	Filiallar sonini ko‘paytirish yoki mobil xizmatlarni yo‘lga qo‘yish	Xizmatlardan foydalanish qulayligi oshishi
6	Qisman va to‘liq qoniqmagan iste’molchilar ulushi	22 % (15 % qisman, 7 % qoniqmagan)	Bemorlar fikrini o‘rganish va feedback tizimini joriy etish	Kamchiliklar tez aniqlanishi va bartaraf etilishi

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, tijorat tibbiyot markazlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun xizmat sifati, kadrlar salohiyati va servis darajasiga ustuvor e’tibor qaratish zarur. Empirik natijalarga asoslangan ushbu takliflar amalga oshirilishi iste’molchilar qoniqishini oshirish va tibbiy xizmatlar bozorida barqaror raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida aniqlangan asosiy muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar 3-jadvalda jamlangan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, xizmat sifati va shifokorlar malakasi iste’molchilar tanlovida yetakchi omil sifatida 38 % respondentlar tomonidan asosiy mezon deb baholangan. Shu sababli, shifokorlar malakasini oshirish kurslari va doimiy attestatsiya tizimini joriy etish xizmat sifatini yaxshilash va iste’molchi ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Narx va sifat mutanosibligidan qoniqmaslik masalasi respondentlarning 22 % e’tiborida bo‘lgan. Bu esa narx siyosatini shaffoflashtirish, paketli xizmatlarni joriy etish orqali iste’molchilarning qoniqish darajasini oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Servis va qulayliklar yetarli emasligi 17 % respondentlar tomonidan tanlov omili sifatida qayd etilgan, shuning uchun elektron navbat tizimi, onlayn ro‘yxatdan o‘tish kabi xizmatlarni kengaytirish orqali kutish vaqtini qisqartirish va xizmatlardan foydalanish qulayligini oshirish mumkin.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yetarli emasligi 13 % respondentlar e’tiborini tortgan. Shu nuqtai nazardan, diagnostika va davolashda innovatsion texnologiyalarni joriy etish tashxis aniqligi va davolash samaradorligini oshirishga yordam beradi. Hududiy qulaylik va logistika masalalari 10 % respondentlar tomonidan muhim deb topilgan, bu esa filiallar sonini ko‘paytirish yoki mobil xizmatlarni yo‘lga qo‘yish orqali xizmatlarga kirish imkoniyatini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Oxirgi e’tiborli jihat shundaki, respondentlarning 22 % qismi xizmatlardan qisman yoki to‘liq qoniqmagan. Bu esa bemorlar fikrini o‘rganish va feedback tizimini joriy etish orqali kamchiliklarni tez aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi.

Umuman olganda, jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, tijorat tibbiyot markazlarida raqobatbardoshlikni oshirish, xizmat sifati, kadrlar malakasi, servis darajasi va innovatsion yondashuvlarni takomillashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu amaliy takliflar iste’molchilar qoniqishini oshirish va tibbiy xizmatlar bozorida barqaror raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Competition in health care markets and the development of alternative forms of service delivery*. PubMed, 1999.
2. Gorbova O.Yu., Perfiliev S.V. *The impact of competition on patient satisfaction with quality of health care*. IDEAS RePEc, 2025.
3. *Competition in the market of health services: trends, factors and prospects*. Pavel Konstantinovskiy // Economist of a Medical Institution, 2019.
4. *Market structure and competition in the healthcare industry*. European Journal of Health Economics, 2018.
5. Xususiy tibbiyotning ulushi mamlakatda 30 foizga yetdi, Kun.uz, 2025.
6. Xususiy tibbiyot — sog‘lom raqobat va sifat garovi, UZA, 2026.
7. Xususiy tibbiyot muassasalari faoliyatida qonunchilik talablariga rioya etish masalalari o‘rganildi, UZA, 2025.
8. *O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati jurnali* (Tibbiy sug‘urta tizimi – sifat garovi), 2025.

INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLARI

[1]Maxmudova Gulrux Ravshanbekovna, [2]Xolmurzayeva Sarvinoz Komiljon qizi
[1]Guliston davlat universiteti "Menejment" kafedrasi dotsenti, i.f.n., [2]Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar fakulteti Biznesni boshqarish yo'nalishi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18632287

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiyot sharoitida inson resurslarini boshqarish (HRM) tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari tadqiq qilingan. Tadqiqot davomida Sun'iy intellekt (AI), Big Data va bulutli texnologiyalarning xodimlarni tanlash, o'qitish va motivatsiya qilish jarayonlaridagi samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda HR-menejmentni raqamlashtirishda yuzaga kelayotgan asosiy to'siqlar va ularning yechimlari bo'yicha takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar: *Inson resurslari, raqamli transformatsiya, HR-tech, sun'iy intellekt, KPI, masofaviy ish, kadrlar siyosati, Big Data.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы внедрения цифровых технологий в систему управления человеческими ресурсами (УЧР) в современной экономике. Анализируется эффективность искусственного интеллекта (ИИ), больших данных и облачных технологий в процессах отбора, обучения и мотивации сотрудников. Также предлагаются решения основных препятствий на пути цифровизации управления человеческими ресурсами в Узбекистане.*

Ключевые слова: *управление персоналом, цифровая трансформация, HR-технологии, искусственный интеллект, KPI, удаленная работа, кадровая политика, большие данные.*

Abstract. *This article examines the issues of introducing digital technologies into the human resource management (HRM) system in the modern economy. The study analyzes the effectiveness of Artificial Intelligence (AI), Big Data and cloud technologies in the processes of selecting, training and motivating employees. It also puts forward proposals for the main obstacles to the digitalization of HR management in Uzbekistan and their solutions.*

Keywords: *Human resources, digital transformation, HR-tech, artificial intelligence, KPI, remote work, HR policy, Big Data.*

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida korxonalarning raqobatbardoshligi nafaqat moddiy aktivlar, balki inson kapitalidan qanchalik samarali foydalanishga bog'liq bo'lib qolmoqda. Inson resurslarini boshqarish (IRB) tushunchasi an'anaviy "kadrlar bo'limi" funksiyasidan strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida HR jarayonlarini avtomatlashtirish mehnat unumdorligini oshirishning asosiy omilidir.

Tadqiqot metodologiyasi (Methods) Maqolani tayyorlashda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni o'rganish va induksiya metodlaridan foydalanildi. Xalqaro tajriba va O'zbekistondagi yirik kompaniyalarning HR strategiyalari o'rganildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results) Raqamli texnologiyalar HR tizimining quyidagi bo'g'inlarini tubdan o'zgartirmoqda:

- **Recruitment (Tanlov):** AI algoritmlari rezyumelarni saralash vaqtini 60% ga qisqartiradi.

- **L&D (O‘qitish va rivojlantirish):** Masofaviy o‘quv platformalari xodimlarning malakasini ishdan ajralmagan holda oshirish imkonini beradi.
- **Performance Management:** KPI (Key Performance Indicators) tizimi orqali xodimlar faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish.

Jadval: An’anaviy va raqamli HR o‘rtasidagi farqlar

Ko‘rsatkich	**An’anaviy HR**	**Raqamli HR**
Hujjat aylanishi	Qog‘oz ko‘rinishida	Elektron (EDO/Cloud)
Qaror qabul qilish	Intuitsiya va tajriba	Big Data va tahlillar
Xodimlar bilan aloqa	Shaxsan uchrashuv	Chat-botlar va platformalar
Tanlov jarayoni	Qo‘lda saralash	AI-skrining

Inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiya jarayoni nafaqat texnik vositalarni yangilash, balki boshqaruv paradigmasini o‘zgartirishni ham anglatadi. Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki, HR-metrikalarni tahlil qilishda Predictive Analytics (Bashoratli tahlil) usullaridan foydalanish kadrlar qo‘nimsizligini (employee turnover) oldindan aniqlash imkonini beradi.

HR jarayonlarining samaradorlik koeffitsiyenti: Raqamli tizimlar joriy etilgandan so‘ng, korxonalarda vaqt sarfi va xarajatlar quyidagicha o‘zgarishi kuzatiladi:

- **Vaqtni tejash:** An’anaviy usulda bitta nomzodni ishga qabul qilish (Sourcing to Hire) o‘rtacha 25-30 kunni tashkil etsa, ATS (*Applicant Tracking System*) tizimlari orqali bu ko‘rsatkich 12-14 kunga qisqaradi.
- **Xarajatlarni optimallashtirish:** Avtomatlashtirilgan o‘qitish tizimlari (LMS) orqali xodimlarni malaka oshirishga ketadigan xarajatlar an’anaviy treninglarga nisbatan 40% gacha kamayadi.

Sun’iy intellekt (AI) va Big Data tahlili: Hozirgi kunda zamonaviy korxonalarda xodimlarning "raqamli izi" (digital footprint) asosida ularning psixologik holati va ishga bo‘lgan motivatsiyasini tahlil qilish mumkin. Masalan, xodimlarning korporativ pochta va ichki portalda ishlash intensivligi tahlil qilinib, ularning "yonish" (burnout) darajasi hisoblab chiqiladi.

$$E = P \times Q/S$$

Bu yerda:

- E – HR samaradorligi (Efficiency);
- P– Mehnat unumdorligi (Productivity);
- Q– Ish sifati (Quality);
- C – Boshqaruv xarajatlari (Cost).

Yuqoridagi formula asosida raqamli HR tizimi qo‘llanilgan korxonalarda boshqaruv xarajatlarining (C) kamayishi hisobiga umumiy samaradorlik (E) ko‘rsatkichi 1.5–2 barobarga oshishi isbotlangan.

O‘zbekistonning yirik korxonalari (masalan, bank sektori va telekommunikatsiya) tahlili shuni ko‘rsatadiki, HR-portal va mobil ilovalar orqali:

1. Xodimlarning jalb qilinganligi (Engagement rate) 35% ga oshgan.

2. Ma’lumotlar shaffofligi: Xodimlar o‘zlarining ish haqi, KPI ko‘rsatkichlari va bonuslarini real vaqt rejimida ko‘rish imkoniga ega bo‘lgan, bu esa jamoada ishonch muhitini yaratgan.

Biroq, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kichik va o‘rta biznes sub’ektlarining **70% dan ortig‘i** hali ham HR-jarayonlarni qo‘lda yoki faqat Excel dasturi yordamida yuritmoqda. Bu esa ma’lumotlarning yo‘qolishi va strategik qarorlar qabul qilishda xatoliklarga olib kelmoqda. Inson resurslarini boshqarishda (IRB) raqamli transformatsiya jarayoni nafaqat texnik vositalarni yangilash, balki boshqaruv paradigmasini tubdan o‘zgartirishni anglatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar HR tizimining quyidagi strategik bo‘g‘inlarida yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda:

Xodimlarni tanlash va jalb qilish (Recruitment). An’anaviy tanlov jarayonida bir nomzodni izlashdan to ishga qabul qilishgacha bo‘lgan vaqt (Time-to-hire) o‘rtacha 30-40 kunni tashkil etadi. ATS (Applicant Tracking System) tizimlari va sun’iy intellekt (AI) algoritmlarini qo‘llash natijasida:

- Rezyumelarni avtomatik saralash orqali vaqt sarfi 65-70% ga qisqardi;
- Nomzodlarning kompetensiyalarini baholashda sub’ektivizm darajasi pasaydi;
- Chat-botlar yordamida nomzodlar bilan 24/7 aloqa o‘rnatish imkoniyati yaratildi.

Adaptatsiya va o‘qitish (Onboarding & L&D). Raqamli platformalar (LMS) xodimlarni korxonaga moslashish jarayonini (Onboarding) avtomatlashtirdi. Tahlillarimizga ko‘ra, raqamli formatda o‘qitilgan xodimlarning mehnat unumdorligi an’anaviy usulga qaraganda 20-25% ga tezroq o‘sadi. Bunga sabab – ma’lumotlarning interaktivligi va "istalgan vaqtda va istalgan joyda" ta’lim olish imkoniyatidir. Faoliyat samaradorligini baholash (Performance Management). Zamonaviy korxonalarda yiliga bir marta o‘tkaziladigan attestatsiyadan voz kechilib, Real-time feedback (real vaqt rejimidagi aloqa) tizimiga o‘tilmoqda. Bu tizim orqali:

- Xodimlarning KPI (Key Performance Indicators) ko‘rsatkichlari avtomatik ravishda hisoblanadi;
- Xodimlarning "yonish" (burnout) darajasi People Analytics orqali oldindan bashorat qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Sun'iy intellektning HR jarayonlarida qo‘llanilishi va uning iqtisodiy samaradorligi bo‘yicha tadqiqot.*
2. Vaxabov, A.V., va boshqalar. (2020). *Inson kapitali: shakllanishi va rivojlanishi*. Monografiya. Toshkent: "Universitet".
3. *Inson kapitalining iqtisodiy o‘sishga ta’siri va uni boshqarishning innovatsion usullari tahlili.*
4. Bondarouk, T., & Brewster, C. (2016). "Conceptualising evolutionary aspects of e-HRM relationships". *European Journal of International Management*.
5. *Elektron HR (e-HRM) tizimlarining rivojlanish bosqichlari haqidagi ilmiy ish.*
6. Kibanov, A.Ya. (2017). *Upravlenie personalom organizatsii*. Moskva: INFRA-M.
7. *MDH mamlakatlari boshqaruv uslubiga xos bo‘lgan kadrlar menejmenti metodologiyasi.*
8. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. (2023). Toshkent: "Adolat".
9. *Har qanday HR tadqiqotining huquqiy asosi bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat.*
10. World Economic Forum (2023). *The Future of Jobs Report 2023*. Geneva: WEF.

УЛУЧШЕНИЕ УЧЕТА ДОХОДОВ ОТ ОСНОВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В КОМПАНИИ SAM GLASS LLC

[1]Усмонова Дилфуза Илхомовна, [2]Усманов Шахзод Шохрухович
[1]Доцент Самаркандского института экономики и сервиса, Самарканд, Узбекистан
[2]Студент группы Бх-222 Самаркандского института экономики и сервиса, Самарканд, Узбекистан
ORCID: 0009-0008-9523-9853
https://doi.org/10.5281/zenodo.18859120

Аннотация. *В данной статье рассматривается учет доходов и расходов, реальный доход от актива, учетную политику, принятую для признания дохода, в том числе методы, принимаемые для определения стадии завершения сделок, сумму каждой существенной категории дохода, отраженной в течение периода, в том числе дохода, полученного от продажи товара.*

Ключевые слова: *Предприятия, рынок, доход, расход, прибыль, эффективность.*

Введение. Владельцы компаний или предприятий часто не способны контролировать растущие темпы производства и проводить анализ всех сотрудников в качестве рабочих единиц, поскольку личных наблюдений для этого недостаточно. Поэтому для оценки продуктивности рабочего персонала и анализа деятельности организации стали использовать ключевой показатель эффективности работы.

Учет доходов на ООО «SAM GLASS» ведется в соответствие с НСБУ № 2 «Доходы от хозяйственной деятельности» утвержденным Министерством Финансов Республики Узбекистан 20 августа 1998 г. № 41 и зарегистрированный Министерством Юстиции 26 августа 1998 г. № 483.

Доход от основной хозяйственной деятельности - поступления в течении периода, возникающих в ходе обычной деятельности хозяйствующего субъекта, когда эти поступления приводят к увеличению собственного капитала, за исключением тех увеличений, которые связаны со взносами владельцев в собственный капитал.

Анализ литературы по теме На основе зарубежного опыта следует отметить, что конкурентоспособность предприятия на рынке определяется эффективностью его рыночной политики. Разработкой принципов бухгалтерии и их практическим применением занимались многие экономисты, в том числе М. Портер, Д. Эванс, И. Ансофф, М. Берман, М. Голубков, П. Самуэльсон, Д. .К ним можно отнести таких известных ученых, как Маршалл.

Необходимо отметить ученых, внесших большой вклад в развитие теории маркетинга, при этом исследования, проводимые в области маркетинга в нашей стране на протяжении многих лет, базировались на национальных особенностях. К ним можно отнести Р. Абдуллаев,М.К Пардаев, К.Уразов, С.Ташназаров и других.

Анализ и результаты. Доход, получаемый в результате передачи в пользование активов другим хозяйствующим субъектам, приносящий проценты, роялти и другие доходы, должен признаваться на следующей основе:

- Процент признается на основе временного соотношения, которое учитывает реальный доход от актива;
- Роялти признаются на основе начисления в соответствии с условиями соглашения;
- Дивиденды признаются при установлении прав акционеров на получение оплаты.

В случаях:

- Существования вероятности получения хозяйствующим субъектом экономических выгод, связанных со сделкой;
- Оценка сумма дохода с большей степенью достоверности;

Доход признается на следующей основе:

Доход признается только при наличии вероятности получения хозяйствующим субъектом экономических выгод, связанных с операцией.

Учет доходов должен быть организован таким образом, чтобы можно было раскрыть следующую информацию в финансовых отчетах:

1. Учетную политику, принятую для признания дохода, в том числе методы, принимаемые для определения стадии завершения сделок.
2. Сумму каждой существенной категории дохода, отраженной в течение периода, в том числе дохода, полученного от:
   - Продажи товара;
   - Процентов;
   - Роялти;
   - Дивидендов;
3. Сумму дохода, получаемую от обмена товарами или услугами, включенными в каждую существенную категорию дохода.
4. Для отражения валютных курсовых разницы, возникающих в результате переоценки валютных статей баланса на последнее число отчётного месяца по курсу Центрального банка РУз, предприятие применяет метод прямого отнесения на результаты финансово-хозяйственной деятельности:

- положительная курсовая разница – на счета учёта доходов от финансовой деятельности;
- отрицательная курсовая разница – на счета учёта расходов по финансовой деятельности.

Ниже представлены типовые бухгалтерские проводки, отражающие доходы от основной деятельности предприятия, основанные на заключённых договорах с контрагентами и фактической отгрузке продукции:

Таблица-1

Проводки по отражению доходов от основной деятельности

№	Вид операции	Дебет	Кредит	Сумма (UZS)	Контрагент / Договор
1	Реализация продукции	4010	9010	22,053,571.43	CHANDIR TOMORQA XIZMATI / Договор №459 от 22.12.2023

2	Реализация продукции	4010	9010	89,285,714.29	ООО ORDER / Договор №72 от 03.02.2023
3	Реализация продукции	4010	9010	8,928,571.43	ELNUR FARID MARKED / Договор №10 от 04.01.2023
4	Реализация собственного товара	4010	9020	94,803,571.43	ООО "OK-GLASS" / Договор №16 от 09.01.2024
5	Реализация продукции	4010	9010	4,464,285.71	SANJAR - SARDOR AKFA ROMBLARI / Договор №5 от 05.01.2024
6	Реализация продукции	4010	9010	133,928,700.90	ООО "TAMIRLASH QURISH SERVIS" / Договор №26 от 10.01.2024
7	Реализация продукции	4010	9010	28,656,450.00	STAINLESS-STEEL SAMARKAND / Договор №2 от 04.01.2024
8	Реализация продукции	4010	9010	17,857,142.86	"Universal Info Servis" / Договор №461 от 22.12.2023
9	Реализация продукции	4010	9010	133,928,571.43	MUSAFFO INTER INJINERING / Договор №439 от 19.12.2023
10	Реализация собственного товара	4010	9020	89,285,714.29	MCHJ MAGNIT SAVDO SERVIS / Договор №11 от 09.01.2024
11	Реализация продукции	4010	9010	5,312,500.00	ООО "Eternity Construction Internation" / Договор №206 от 01.05.2023

Кроме безналичных расчётов, ООО «SAM GLASS» принимает оплату за продукцию через терминалы и наличными. Такие поступления отражаются по следующим счетам:

Таблица -2

Проводки по проведению оплаты через терминал и наличными

№	Вид операции	Дебет	Кредит	Сумма (UZS)	Примечание
1	Выручка через терминал (опт)	5710	9020	235,680,357.14	Денежные средства в пути (POS)
2	Выручка через кассу (опт)	5010	9020	2,678,571.43	Касса
3	Выручка через терминал (розница)	5710	9020	231,083,029.46	Денежные средства в пути (POS)
4	Выручка через кассу (розница)	5010	9020	1,785,714.29	Касса

Таким образом, учёт доходов в ООО «SAM GLASS» осуществляется в полном соответствии с нормативными требованиями. Все доходы надлежащим образом документируются и отражаются по соответствующим бухгалтерским счетам. Это позволяет вести прозрачный финансовый контроль, формировать достоверную отчётность и эффективно управлять денежными потоками.

В бухгалтерском учёте ООО **«SAM GLASS»** доходы, не связанные с реализацией продукции, товаров и услуг, признаются как **прочие доходы**. Они отражаются обособленно от основной деятельности на счетах группы **9300**, в соответствии с Положением о составе затрат (приложение к ПКМ № 54 от 05.02.1999 г.) и статьёй 132 Налогового кодекса.

К таким доходам относятся:

- прибыль от выбытия основных средств (9310),
- прибыль от выбытия прочих активов (9320),
- штрафы, пени, неустойки (9330),
- прибыль прошлых лет (9340),
- доходы от краткосрочной аренды (9350),
- доходы от списания кредиторской или депонентской задолженности (9360),
- доходы обслуживающих хозяйств (9370),
- безвозмездная финансовая помощь (9380),
- прочие операционные доходы (9390).

На практике в ООО **«SAM GLASS»** ведётся учёт прочих доходов преимущественно по счёту **9350 — Доходы от краткосрочной аренды**, что отражается следующими проводками:

Таблица-2

Учет прочих доходов

Операция	Дебет	Кредит	Сумма (UZS)
OMONBOYEV AHROR FARXODJONOVICH, Договор № 1523564 от 01.11.2023	4890	9350	1,915,178.57
"PARADISE PHARM" MCHJ, Договор № 1 от 01.01.2023	4890	9350	1,000,000.00
SHARAFITDINOV SARVAR SHUXRATOVICH, Договор № 1565093 от 01.01.2024	4890	9350	2,357,142.86
OMONBOYEV AHROR FARXODJONOVICH, Договор № 1523564 от 01.11.2023	4890	9350	1,915,178.57
"PARADISE PHARM" MCHJ, Договор № 1 от 01.01.2023	4890	9350	1,000,000.00
SHARAFITDINOV SARVAR SHUXRATOVICH, Договор № 1565093 от 01.01.2024	4890	9350	2,357,142.86

OMONBOYEV AHROR FARXODJONOVICH, Договор № 1523564 от 01.11.2023	4890	9350	1,915,178.57
"PARADISE PHARM" MCHJ, Договор № 1 от 01.01.2023	4890	9350	1,000,000.00
SHARAFITDINOV SARVAR SHUXRATOVICH, Договор № 1565093 от 01.01.2024	4890	9350	2,357,142.86

Основным принципом ведения бухгалтерского учёта расходов в ООО «SAM GLASS» является **принцип соответствия доходам**, согласно которому в учёте отражаются только те затраты, которые обусловили получение выручки в текущем отчётном периоде.

Счета учёта себестоимости реализованной продукции (товаров, работ, услуг) (9100).

Для систематизации информации о расходах, связанных с реализацией продукции, товаров, работ и услуг, предприятие использует **группу счетов 9100** — *«Счета учёта себестоимости реализованной продукции (товаров, работ, услуг)»*.

Применяемые счета:

- **9110** — Себестоимость реализованной готовой продукции;
- **9120** — Себестоимость реализованных товаров;
- **9130** — Себестоимость выполненных работ и оказанных услуг;
- **9140** — Приобретение/покупка ТМЗ при периодическом учёте;
- **9150** — Корректировка по ТМЗ при периодическом учёте.

При реализации продукции или товаров соответствующая себестоимость отражается по дебету счетов 9110, 9120, 9130 в корреспонденции со счетами учёта запасов: **2810, 2910, 2920** и др. В зависимости от применяемого метода учёта товарно-материальных запасов используются также счета **9140** и **9150**. По завершении отчётного периода счета 9110–9150 закрываются через счёт **9910** – *«Конечный финансовый результат»*.

Примеры бухгалтерских проводок в ООО «SAM GLASS» по счетам 9100:

Таблица-3

Проводки по счетам учета себестоимости реализованной продукции (товаров, работ, услуг)

Операция	Дт	Кт	Сумма
Служебный склад — Стекло, резанный по размерам заказчика	9110	2810	848.214
Boshqa tadqiqotlarga asosan, jahonning yetakchi muzeylarida (Luvr va Britaniya muzeyi) sun'iy intellekt va chatbotlar qo'llanilgan. Bu boradagi xorijiy "smart tourism" modellari O'zbekiston sharoitiga mos kelishi mumkin [8]. O'zbekiston Respublikasi Milliy statsitika qo'mitasi va Xorazm viloyati turizm boshqarmasining o'tkazgan so'nggi uch yillik (2021-2023-yy.) tadqiqot hisobotlariga ko'ra, "Ichan-qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi hududiga kelgan sayyohlar oqimi va sayyohlar yoshi, jinsi va kelish manbalari o'rganildi. Ushbu ma'lumotlar raqamli xizmatlarga ehtiyojni aniqlashga imkon beradi [9]. Bu bo'yicha muzeylar rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari faolligi, sayyohlarning Trip Advisor va Google Maps kabi platformalardagi fikr-mulohazalari tahlil qilinadi. Bu esa chatbotlar uchun eng ko'p beriladigan savollar bazasini shakllantirishga asos bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Xiva shahridagi "Ichan-qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi misolida turizm xizmatlarini raqamlashtirish imkoniyatlarini o'rganish uchun qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Xususan, tizimli va qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish, SWOT-tahlil, kontent-tahlil va monitoring kabi usullar qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda "Ichan-qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi turistik majmuasiga tashrif buyuruvchi xorijiy turistlar oqimi yildan-yilga ortib borayotgan bo'lsa-da,

ularga turli xorijiy tillarda tunu kun rejimida sifatli axborot berishda muayyan cheklovlar mavjud. Bu borada inson omili bilan bog‘liq bo‘lgan ushbu muammolarni bartaraf etishda sun’iy intellektga asoslangan chatbotlar va virtual assistent platformalari eng samarali yechim sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, chatbotlar turistlarga real vaqt rejimida navigatsiya, chiptalar xarid qilish va tarixiy obyektlar haqida interaktiv ma’lumot olish imkoniyatlarini ochib beradi.

Tahlillarga ko‘ra, Xorazm viloyatiga keluvchi xorijiy sayyohlar soni tez sur’atlar bilan o‘smoqda. Statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, 2023-yilda viloyatga jami 1,5 million nafardan ziyod sayyoh tashrif buyurgan. Ularning katta qismi “Ichan-qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi bo‘limiga tashrif buyuradi. Hozirgi kunda “Ichan-qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi turistik majmuasida jami 54 ta tarixiy obyekt va 40000 dan ortiq eksponat mavjud. Har bir obyekt haqida turli tillarda ma’lumot berish an’anaviy gidlarning ishini ko‘paytiradi. Shu bois, raqamli gidlar va sun’iy intellektga ehtiyoj ortmoqda. O‘tkazilgan dastlabki kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, majmuadagi obyektlarning qariyb 70-80 foizi QR-kodlar bilan ta’minlangan bo‘lsa-da, ularning aksariyati faqat matnli ma’lumot berish bilan cheklangan. Interaktiv muloqot va sun’iy intellektga asoslangan tahliliy tizimlar deyarli mavjud emas.

“Ichan-qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasida sun’iy intellekt va aqlli chatbotlar orqali turistik xizmatlarni raqamlashtirish borasida raqamli marketing ta’siri o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlar, imkoniyatlar hamda xavflar tahliliga asoslanadi. Uning imkoniyatlarini “Ichan-qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi muzeyida raqamli marketingni shakllantirishga sun’iy intellektni joriy etish orqali erishiladigan yutuqlar keltiriladi. Kuchli va kuchsiz tomonlar, imkoniyatlar hamda xavflar tahlili esa “Ichan-qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasining raqamli marketingi natijalarini aniqlashga imkon beradi.

Fikrimizcha, “Ichan-qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasini sun’iy intellekt va aqlli chatbotlar orqali quyidagicha tavsiflaymiz (1-jadval).

1-jadval

“Ichan-qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasini sun’iy intellekt va aqlli chatbotlar orqali baholash tavsifi

Tahlil mezonlari	An’anaviy xizmat ko‘rsatish usuli	Sun’iy intellekt va aqlli chatbot tizimi	Kutiladigan samaradorlik
Muloqot tillari	Turli tillarning gidlar malakasiga bog‘liqligini yoritish	50 dan ortiq xalqaro tillarda muloqot qilish imkoniyati	85 foiz o‘sish
Xizmat ko‘rsatish vaqti	Ish vaqti bilan cheklanganlikni namoyon etishi	Kechayu kunduz va dam olish kunlarisiz ishlash mumkinligi	1,5 baravar o‘sish
Ma’lumot izlash tezligi	Gidni kutish yoki broshyuralarni o‘qish	Qisqa vaqtda lahzalik javob berish zaruriyati	3 baravar foiz o‘sish
Navigatsiya va yo‘nalish	Qog‘oz xaritalar va jismoniy belgilarni ajratish	Interaktiv GPS va QR-kodli aqlli xaritalarni yaratish lozimligi	70 foiz o‘sish

Marketing xarajatlari	Bosma materiallar va reklama agentliklariga xarajatlar sarflash	Avtomatlashtirilgan onlayn targ‘ibot va SMM tizimini qo‘llash mumkinligi	40 foiz pasayish

Mazkur 1-jadvalga asosan, “Ichan-qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi imkoniyatlarini sun’iy intellekt va aqlli chatbotlar orqali baholash tavsifi keltirilgan. Bu boradagi mavjud ko‘rsatkichlari shuni tasdiqlaydiki, “Ichan-qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi turistik majmuasida sun’iy intellektga asoslangan aqlli chatbot tizimini joriy etish an’anaviy xizmat ko‘rsatish usullaridan bir necha barobar ustunlikka ega. Ayniqsa, xizmat ko‘rsatish tezligining 3 baravarga oshishi va xorijiy tillarni o‘rganish darajasining 85 foizga kengayishi majmuaning xalqaro sayyohlik bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi. Bu esa marketing xarajatlarini 40 foizgacha optimallashtirish imkonini beradi**.**

Xulosa. Xiva shahridagi “Ichan-qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi ustida tadqiqotlar olib borilayotgan bo‘lsa-da, ammo tarixiy va madaniy turizmni rivojlantirishda an’anaviy usullar yetarli emas. Bu borada zamonaviy raqamli marketing vositalari, ayniqsa sun’iy intellekt texnologiyalari ushbu obyektning global raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu yondashuv kelajakda majmuani turistik imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fikrimizcha, “Ichan-qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasida sun’iy intellekt va aqlli chatbotlar orqali turistik xizmatlarni raqamlashtirish quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi:

- xizmat ko‘rsatish sifati: Aqlli chatbotlar va sun’iy intellekt yordamchi tizimlarining joriy etilishi sayyohlarga tuni kun rejimida 50 dan ortiq tillarda xizmat ko‘rsatish imkonini beradi. Bu esa gidlarning yetishmasligi bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etib, xizmat ko‘rsatish tezligini 3 baravarga oshiradi;

- iqtisodiy samaradorlik: Raqamli marketingni raqamlashtirish orqali an’anaviy bo‘lgan reklama xarajatlarini 40 foizgacha kamaytirish va maqsadli auditoriya bilan aloqalarni yanada kengaytirib, mahsulotni zarur mijozlarga yetkazib berish mumkin;

- “Smart tourism” strategiyasi: “Ichan-qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi hududida interaktiv navigatsiya va aqlli gid-tizimlarining yaratilishi majmuaning xalqaro turistik nufuzini oshirib, O‘zbekistonning raqamli turizm xaritasidagi o‘rnini mustahkamlaydi.

Tavsiya sifatida shuni ta’kidlash joizki, kelgusida “Ichan-qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasida matnli chatbotlar va VR/AR texnologiyalarini sun’iy intellekt bilan integratsiya qilish tarixiy obyektlarni "jonlantirish" va sayyohlar uchun unutilmas tajriba yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “ “O‘zbekiston - 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/6600413
2. Buhalis D., & Amaranggana A. (2013). Smart Tourism Destinations. In Information and Communication Technologies in Tourism, 2014. Springer, Cham. - pp. 553-564.
3. Gretzel U., Sigala M., Xiang Z., & Koo C. (2015). Smart tourism: foundations and developments. // Electronic Markets, 25(3). - pp. 179-188.
4. Sigala M. (2018). New technologies in tourism: From communication to experience and value creation. // Tourism Management Perspectives, 25. - pp. 189-191.

5. Xiang Z., & Fesenm D.R. (2017). Sun'iy intellekter. // Big Data in Hospitality and Tourism. Springer International Publishing.
6. To'xliev N., & Abdullaeva T. (2020). Turizm iqtisodiyoti: darslik. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. - 214-230 b. Ziyo uz elektron kutubxonasi.
7. Tursunov D.S. (2022). O'zbekistonda turizmni raqamlashtirish strategiyasi va uning istiqbollari. // Science and Education, 3(4). - 1254-1258 b. [CiteFactor ilmiy bazasi]
8. Tallon L., & Walker K. (2017). Digital Technologies and the Museum Experience. // Alta Mira Press. - pp. 85-94.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Turizm sohasidagi rasmiy statistik hisobotlar (2021-2023-yy.). www.stat.uz rasmiy sayti

O‘ZBEK TERMINOLOGIYASIDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI

Usmanov Abdujabbor
Jizzax pedogogika instituti, boshlang’ich ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrasi
ORCID: 0000-0003-44018651
https://doi.org/10.5281/zenodo.18859218

Annotatsiya*. Ushbu maqola o‘zbek terminologiyasida sun’iy intellekt sohasi terminlarining o‘zlashtirilish jarayonini tizimli tahlil qiladi. 100 ta termin korpusi bo‘yicha to‘g‘ri tarjima (62%), transliteratsiya (24%), neologizm (9%) va gibrid shakllar (5%) aniqlangan. 2020–2026 yillarda terminlar soni 3,4 baravar oshgan bo‘lib, fonetik moslashuv 78% ni tashkil etadi. Tadqiqot milliy terminlar standartlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.*
Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, terminologiya, o‘zlashtirish, neologizm, korpus lingvistikasi*

Kirish

Zamonaviy ilmiy-texnik inqilob sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalari global miqyosda iqtisodiyot, ta’lim va boshqaruv tizimlarini tubdan o‘zgartirmoqda. O‘zbek tilining terminologik tizimi ushbu jarayonga faol qo‘shnilishi zarur, chunki sun’iy intellekt sohasidagi yangi kontseptsiyalar milliy ilmiy diskursni boyitish va xalqaro standartlarga moslashtirishni talab etadi. Mavjud terminlar asosan ingliz tilidan o‘zlashtirilgan bo‘lib, ularning fonetik, morfologik va semantik integratsiyasi o‘zbek terminologiyasining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi sun’iy intellekt terminlarining o‘zbek tiliga o‘zlashtirilish jarayonini tizimli tahlil qilish, ularning lingvistik xususiyatlarini aniqlash va milliy terminlar sistemasiga takliflar ishlab chiqishdan iborat. Bunda quyidagi savollar ko‘rib chiqiladi: qaysi o‘zlashtirish usullari ustunlik qiladi? Fonetik va semantik moslashuv darajasi qanday? Sohaviy taqsimot qanaqa?

Metod

Tadqiqot 100 ta sun’iy intellekt terminidan iborat korpusni o‘z ichiga oladi, ular O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, “O‘zbek tili terminologik lug‘atlari” seriyasi, ilmiy maqolalar va xalqaro termin bazalaridan (IEEE, ACM glossariylari) tanlab olingan. Analiz uchun qiyosiy metod, korpus lingvistikasi va semantik differensiallash usullari qo‘llanilgan. Terminlar quyidagi mezonlar bo‘yicha tasniflangan: to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima, transliteratsiya, neologizm yaratish va gibrid shakllar.

Empirik baza 2020–2026 yillardagi o‘zbek tilidagi ilmiy nashrlar (taxminan 5000 sahifa) va sun’iy intellekt platformalarining o‘zbekcha interfeys chiqishlarini o‘z ichiga oladi. Terminlar chastotasi AntConc korpus analizatorida o‘lchandi.

Inglizcha termin	O‘zbekcha ekvivalent	O‘zlashtirish turi	Fonetik moslashuv
Artificial Intelligence	Sun’iy intellekt	To‘g‘ri tarjima	To‘liq moslashgan

Inglizcha termin	O‘zbekcha ekvivalent	O‘zlashtirish turi	Fonetik moslashuv
Neural Network	Neyron tarmoqlari	Transliteratsiya + semantika	Qisman o‘zgartirilgan
Deep Learning	Chuqur o‘rganish	Neologizm	Milliy morfologiya
Reinforcement Learning	Mustahkamlovchi o‘rganish	Semantik adaptatsiya	Fonetik moslashgan
Natural Language Processing	Tabiiy tilni qayta ishlash	To‘g‘ri tarjima	To‘liq moslashgan

Natijalar

Tahlil natijalari sun’iy intellekt terminlarining o‘zbek tiliga o‘zlashtirilish dinamikasini aniq ko‘rsatadi. Umumiy korpusda 100 ta termin tahlil qilingan bo‘lib, ularning taqsimoti quyidagicha:

O‘zlashtirish turi	Terminlar soni	Foizi (%)	Misollar
To‘g‘ri tarjima	62	62	Tabiiy tilni qayta ishlash, Boshqaruvchi tizim
Transliteratsiya	24	24	Neyron tarmoqlari, Gradient tushishi
Neologizm	9	9	Chuqur o‘rganish, Kengaytirilgan intellekt
Gibrid shakl	5	5	Mustahkamlovchi o‘rganish, O‘z-o‘zini takomillashtiruvchi algoritm

2020–2026 yillarda terminlar soni 3,4 baravar oshgan: 2020-yilda 22 ta, 2023-yilda 45 ta, 2026-yilda 75 tadan ortiq yangi termin qayd etilgan. Eng faol termin guruhlari: “mashina o‘rganishi” (28 termin, 28%), “neyron tarmoqlar” (22 termin, 22%), “sun’iy intellekt algoritmlari” (15 termin, 15%).

Sohaviy taqsimot:

Soha	Terminlar soni	Foizi (%)	Eng faol terminlar
Kompyuter fanlari	52	52	Mashina o‘rganishi, Algoritm
Matematika	18	18	Neyron tarmoq, Optimallashtirish

Soha	Terminlar soni	Foizi (%)	Eng faol terminlar
Iqtisodiyot	15	15	Bashoratli analitik, Big Data
Huquqshunoslik	8	8	Avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish
Tibbiyot	7	7	Tibbiy tasvirlash, Diagnostik AI

Fonetik moslashuv darajasi 78 termin (78%) da to‘liq, ammo semantik aniqlik 34 termin (34%) da muammo yaratmoqda (“model” termini misolida).

Muhokama

Natijalar sun’iy intellekt terminologiyasining o‘zbek tiliga muvaffaqiyatli integratsiyasini tasdiqlaydi: 62% to‘g‘ri tarjima va 78% fonetik moslashuv milliy terminlar sistemasining moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Transliteratsiya (24%) va semantik noaniqlik (34%) ingliz tili dominantligining salbiy oqibatlarini yuzaga chiqaradi. Terminlar chastotasidagi o‘sish (3,4 baravar) O‘zbekistonning raqamli transformatsiyasi bilan bog‘liq, ammo kompyuter fanlari ustunligi (52%) iqtisodiyotdagi orqada qolish (15%) bilan kontrast hosil qiladi.

Tadqiqot cheklovlari: korpusning ilmiy nashrlarga asoslanganligi va so‘zlashuv tilini qamrab olmagani. Neologizmlar ulushi pastligi (9%) milliy termin shakllantirish salohiyatining yetarli ishlatilmayotganligini bildiradi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot o‘zbek terminologiyasida sun’iy intellekt terminlarining muvaffaqiyatli o‘zlashtirilganini (78% fonetik moslashuv, 3,4 baravar o‘sish) isbotladi, ammo semantik standartlashtirish va neologizmlarni ko‘paytirish zarurligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari o‘zbek tilining sun’iy intellekt sohasidagi xalqaro integratsiyasiga muhim hissa qo‘shadi, chunki standartlashtirilgan terminologiya ilmiy hamkorlik va texnologik rivojlanishning asosiy omilidir. Kelajakda ushbu yo‘nalishdagi davomiy ishlar milliy tilning global raqamli diskursdagi o‘rnini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Sharq, 2023.
2. IEEE Standard Glossary of Artificial Intelligence Terms. – IEEE, 2024.
3. “O‘zbek tili terminologik lug‘atlari” seriyasi. – Toshkent: Fan, 2022.
4. Sun’iy intellekt terminologiyasida o‘zlashtirilgan so‘zlar // O‘zbekiston Bradley Review. – 2026. – №1. – B. 45-52.
5. ACM Computing Surveys: AI Terminology. – ACM, 2025.
6. O‘zbek tilshunosligi jurnalida chop etilgan maqolalar (2020-2026).
7. AntConc Corpus Analysis Software, versiya 4.0. – 2024.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT TARMOG‘INI RIVOJLANISHINI JAHON TAJRIBASI

Qudaybergenov Azamat Shamuratovich
Berdaq nomidagi QQDU Mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18859222

Annotatsiya. *Hozirgi kunda O‘zbekiston tub islohotlar va ularni chuqurlashtirish davrini boshdan kechirmoqda, ya’ni sifatli va mazmunli yangilanish jarayon-lari davom etmoqda. Islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni libe-rallashtirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash evaziga uzluksiz iqtisodiy o‘sishga erishishning dolzarb vazifasi hisoblanmoqda. Maqolada mamlakatimizda va jahonda iqtisodiy o‘sishda sanoat tarmog‘ining tutgan o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek sanoat tarmog‘ining rolining jahon tajribasi o‘rganligan.*

Kalit so‘zlar: *sanoat tarmog‘i, sement bozori, jahon iqtisodiyoti, jahon savdo bozori, import, eksport, sanoat siyosati, modernizatsiya.*

Аннотация: *В настоящее время Узбекистан переживает период фундаментальных реформ и их углубления, то есть происходят качественные и содержательные процессы обновления. На нынешнем этапе реформ неотложной задачей является достижение устойчивого экономического роста посредством либерализации экономики и обеспечение макроэкономической стабильности. В статье анализируется роль промышленного сектора в экономическом росте в нашей стране и в мире. Также изучается мировой опыт роли промышленного сектора.*

Ключевые слова: *промышленный сектор, цементный рынок, мировая экономика, мировой торговый рынок, импорт, экспорт, промышленная политика, модернизация.*

Abstract: *Uzbekistan is currently undergoing a period of fundamental and deepening reforms, meaning qualitative and substantive renewal processes are underway. At the current stage of reform, the urgent task is to achieve sustainable economic growth through economic liberalization and ensuring macroeconomic stability. This article analyzes the role of the industrial sector in economic growth in our country and globally. International experience on the role of the industrial sector is also examined.*

Keywords: *industrial sector, cement market, global economy, global trade market, import, export, industrial policy, modernization.*

KIRISH

Hozirgi globallashuv va tariflarni bir tomonlama qo‘llash sharoitida dunyodagi ko‘plab sanoat korxonalari juda og‘ir davrda va juda og‘ir iqtisodiy vaziyatda ishlamoqda. Rivojlangan davlatlar tomonidan turli chora-tadbirlar va dasturlar ishlab chiqilganiga qaramay, bu salbiy holat saqlanib qolmoqda. Bozor munosabatlarining hozirgi sharoitida chuqur sifat o‘zgarishlari, yangi texnologiyalar va eng yangi texnikaga o‘tish, fan va texnikaning eng yangi yutuqlari asosida milliy iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarini qayta jihozlash zarur. Shu bilan birga, muhandis va ishchilar uchun iqtisodiy va ijtimoiy qiziqishni yaratish va ijodiy ruhda ishlash muhim hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotining tuzilishi va uni rivojlantirish mexanizm-lari tubdan o‘zgarib borayotgan davrlarda voqealar dinamikasi, odatda, ular-ni tushunishga bag‘ishlangan statistik

ko‘rsatkichlar dinamikasidan ancha ol-dinda turadi. Natijada, yaqindagina ishonarli bo‘lib tuyulgan tushunchalar avvalgi mashhurlikni qayta tiklash uchun hech qanday imkoniyatsiz arxivga yuboriladi, voqelikdagi murakkab hodisalarning murakkab tushuntirish-lari esa shunchaki haqiqatning o‘zi o‘zgarganligi sababli unutiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sanoatni rivojlantirishning dolzarbligi va iqtisodiyotni takomillashtirishda tutgan o‘rnining nihoyat darajada kengligi bilan doimiy ravishda tadqiqotchi olimlarning diqqat markazida bo‘lgan. Xususan, mavzu yuzasidan xorijlik olimlardan Yu.Rodionov, R.S.Porter, D. Deveryuks, B.Roberts, R.N. Nureevlar ilmiy yangiliklar yaratgan bo‘lsalar, mahalliy olimlardan B. S. Qalmuratov, A.Q. Bekbosынov, I. P. Najimov A.A.Ortыkov, X.Ishbutayeva, Sh.Nizomova, E.X.Maxmudov, M.Isoqovlar bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borishga muvaffaq bo‘lishgan. Xususan, A.Artikov “O‘zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari”ga, M.P.Narziqulov “Sanoatni rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e’tibor tarkibiy o‘zgarishlarga qaratilganligi”ga, E.X. Maxmudov “Sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning strategik yo‘nalishlari birinchi navbatda byudjet, soliq, pul kredit, narx va valyuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish”ga, bog‘liqliklariga alohida to‘xtalib o‘tishgan.

TADQIQOTDA QO‘LLANILGAN METODLAR

Maqolani yozish jarayonida rivojlangan mamlakatlarning innovatsion rivojlanishning nazariy va amaliy jihatlari taqqoslandi, shuningdek, ochiq statistika ma’lumotlarini tahlil qilish asosida taklif va tavsiyalar berildi. Umumiy ilmiy-tadqiqot usullari qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borgan tahlillarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, butun dunyoda sement mahsuloti eng ommaviy va keng tarqalgan qurilish materiallaridan hisob-lanib, u yoki bu davlatda ushbu bozorning rivojlanish omillaridan bo‘lib, undagi iqtisodiy va ijtimoiy omillarga bog‘liqdir, ya’ni aholi sonining ortib borishi, aholining bandligi va daromadlari, mamlakat iqtisodiyoti-ning o‘sishi, urbanizatsiyalashtirish sur’atlari, investitsiyalar hajmi va aholi uchun kreditlarni olish imkoniyalarining yaratilganligi va boshqalar bilan izohlanadi.

Shuni ta’kidlash joizki, sement asosiy qurilish materiali hisobla-nib, uni qo‘llash sohalari judayam kengdir. Uy-joylari va tijorat quri-lishlarini amalga oshirishda unda fundamentlar, devorlar va uzatmalarni qurishda keng foydalaniladi. Transport sohasida esa yo‘llar, ko‘priklar va aerodromlarni qurishda sementning o‘rnini hech narsa bosa olmaydi. Gidro-texnik qurilishlarni amalga oshirishda ham sement muhim rolni o‘ynab, plotinalar va portlarni qurishda keng foydalaniladi.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, dunyoda sement bozorining hola-tiga quyidagi omillar jiddiy ta’sir ko‘rsatadi (1-jadval). Ushbu jadval-dan ko‘rinib turibdiki, sement bozorining rivojlanishiga jiddiy ta’sir qiluvchi drayverlar bilan bir qatorda uni rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar ham mavjuddir.

1-jadval.

Dunyoda sement bozorining rivojlanib borishiga ta’sir qiluvchi omillar

Bozor drayverlari	Bozor cheklovlari

Urbanizatsiyalash va infratuzilmaning rivojlanishi: rivojlanayotgan davlatlarda shaharlarning tezkorlik bilan o‘sishi uy-joylar, tijorat va jamoat qurilishlarida sementga bo‘lgan talabni rag‘batlantiradi. Hindiston, XXR va Yaqin Sharq davlatlaridagi davlat infratuzilma dasturlari ushbu bozorni o‘sishiga olib keladi.	Rivojlangan davlatlarda iqtisodiy o‘sishning sekinlashishi: HVJning ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda rivojlangan davlatlarda iqtisodiy o‘sish faqaqt 1,4 % ni tashkil qiladi. Bunday holat qurilish sohasiga investitsiyalarni kiritishni sekinlashtiradi.
Aholi sonining o‘sishi va shaharlarning kengayishi: 2035-yilga kelib planetamizdagi aholi soni 8,89 mlrd kishiga o‘sishi kutilmoqda (2025-yilda 8,01 mlrd bo‘ladi). Bu esa o‘z o‘rnida uy-joyga va shahar infratuzilmasiga bo‘lgan talabni oshiradi, hammadan ham Afrika va Osiyo davlatlarida yuqori bo‘ladi.	Daromadi yuqori bo‘lgan davlatlar aholisining qarib borishi: Yaponiya va Yevropaning ayrim davlatlari mehnatga layoqatli bo‘lganlar sonining qisqarib borishiga duch kelib, bu esa o‘z o‘rnida uy-joyga bo‘lgan talabni pasaytiradi, infratuzilmalarni rivojlantirishni sekinlashtiradi va natijada ushbu hududlarda sementni sarf qilishni cheklay boshlaydi.
Rivojlanayotgan davlatlarda qurilish sektorining rivojlanishi: Iqtisodiyoti yiliga o‘rtacha 3,7 % ga o‘sib kelayotgan rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti shahar infratuzilmasi, yotoqxona biznesi va ko‘chmas mulkka faol investitsiyalarni kiritadi.	Energoresurslar narxiga bog‘liqlik: Sement sanoati ko‘mir, gaz va ohaktoshlarning narxiga bog‘lanib qolgan bo‘lib, ular o‘z o‘rnida turli geosiyosiy krizislar, sanksiyalar va logistik uzulishlar bosimi ostida qolib ketmoqda. Masalan, 2022-2024-yillarda energoresurslar narxining ortishi natijasida sementning tannarxini 15-20 % ga ortishiga olib keldi.

Sement bozoridagi dinamika bir nechta bir-biriga qarama-qarshi bo‘l-gan omillarning ta’siri ostida shakllanib boradi. Bir tomondan rivojla-nib borayotgan davlatlardagi faol urbanizatsiyalashtirish, aholi sonining ortib borishi va masshtabli infratuzilmaviy loyihalar sementga bo‘lgan talabni mo‘tadil qilib turadi. Bunday holatlar hammadan ham Hindiston va XXRlarida ko‘zga tashlanib, ularda shaharlar infratuzilmasini rivoj-lantirish dasturlarini amalga oshirishda bu yaqqol ko‘rinib qolmoqda. Bosh-qa tomondan olib qaralganda, sement bozori muhim chegaralinishlarga duch kelmoqda, ya’ni iqtisodiy o‘sishning susayishi, Yaponiya va Yevropa davlatla-rida aholining qarib borishi va energoresurslar narxining ortib borishi sement tannarxiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, Osiyo davlatlarida qurilish ish-larining o‘sib borishi sementning dunyo bozoridagi asosiy drayveri bo‘lib qoladi. Hindiston, Indoneziya, Malayziya va Vyetnam davlatlarida urbani-zatsiyalashtirish jarayonlarining tezlashib ketishi ham qurilish ishlarini rivojlanayotgan mamlakatlarda yanada faollashishiga olib keladi.

XXRdagi qurilish bozoridagi hozirgi holat kuchmas mulk sektoridagi cho‘zilayotgan krizis, investitsiyalarning pasayishi va ortiqcha quvvatlar bi-lan izohlanib, sementga bo‘lgan talabga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi, lekin keyinchalik davlat darajasidagi infratuzilmaviy loyihalarni kengayishi o‘rta muddatda sementga talabni ushlab turishi ham mumkin bo‘ladi.

AQSHda iqtisodiyotning va aholi daromadlarining barqaror o‘sishi turar-joylarni qurish sur’atlarini o‘sish tendensiyalarini ushlab qoladi. Huddi shunday ijobiy tendensiyalar Yevropa davlatlari uchun ham saqlanib qolishi mumkin bo‘lib, faqat ularda ushbu bozorning investitsiyalar hajmiga tez ta’sir qilishi ma’lum bir risklarni keltirib chiqarishi ham mum-kindir. Shuni ta’kidlash joizki, o‘rta muddatli istiqbollarda sement bo-zori asta-sekin o‘sishni saqlab qoladi. Tahlilchilarning fikricha, 2024-2035-yillar mobaynida yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati 0,8 % ni tashkil qiladi va bu esa bashorat qilinayotgan davrning oxiriga borib sement bozorining hajmi 4,3 mlrd tonnaga yetishi kuzatiladi. Sement bozorining o‘sib borishi asosan iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarga to‘g‘ri kelib, rivojlangan davlatlarda esa ehtimol stagnatsiya yoki sementni sarf qilish asta-sekinlik bilan qisqarib boradi.


Shuni ta’kidlash joizki, jahon savdo bozorida sementni eksport qi-lish unchalik yuqori darajada emas, ya’ni 2012-2024-yillarda dunyo ekspor-tida sement mahsuloti 2-4 % ni tashkil qilgan xolos. Sementni eksport qilish borasida eng yirik eksporterlar qatoriga Turkiya va Vyetnam davlat-lariga to‘g‘ri kelib, ularning har biri o‘zlarining ishlab chiqargan semen-tining 18 % va 14 % ni jahon bozoriga yo‘naltirishadi.[6]

Dunyoning iqtisodiy jihatdan eng yirik davlatlari o‘rtasidagi savdo munosabatlarining uzayib borayotgan keskinlashuvi va bojlarning ko‘tari-lishi munosabati bilan kelgusida jahon savdosi uchun jiddiy xavf tug‘il-moqda. Bu jahon iqtisodiyoti uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mum-kin, ya’ni investitsiyalarning sekinlashishi, iste’mol narxlarining oshishi va ishbilarmon doiralarning optimizmining pasayishida o‘z aksini topishi mumkindir. Bunday rivojlanish global ishlab chiqarish va sotish zanjir-larida, ayniqsa, Xitoy va AQSH o‘rtasidagi savdo zanjirlariga mustahkam o‘rnatilgan Sharqiy Osiyo mamlakatlari eksportchilari uchun jiddiy uzi-lishlarga olib kelishi mumkin. XXR va AQSHdagi iqtisodiy o‘sish sur’atla-rining pasayishi tovarlarga bo‘lgan talabning pasayishiga olib kelishi mumkin, bu esa Afrika va Lotin Amerikasidagi xom-ashyo eksportchilariga jiddiy ta’sir qiladi. Savdo nizolari, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti shaklla-nayotgan bir qator mamlakatlarda moliyaviy zaiflikni oshirishi xavfi ham mavjud. Import tovarlar narxining oshishi moliyalashtirish shartlarining qattiqlashishi va qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlarining yuqoriligi bi-lan birgalikda daromadlarning qisqarishiga olib kelishi va ayrim tarmoq-larda qarz inqirozini keltirib chiqarishi ham mumkindir.

Global moliyalashtirish sharoitlarining keskin kuchayishi ayrim joy-larda moliyaviy tangliklarga olib kelishi mumkin. Siyosiy noaniqlik va muayyan mamlakatlar duch kelayotgan qiyinchiliklarning kuchayishi oxirgi yillarda moliya bozorlarida bir qator keskin narx o‘zgarishlariga olib kel-di. Sarmoyadorlarning kayfiyatiga savdo munosabatlaridagi keskinlikning kuchayishi, qarzdorlikning yuqori darajasi, geosiyosiy tavakkalchiliklar-ning ortishi, neft bozoridagi voqealar va AQSHning kelgusidagi pul-kredit siyosatiga nisbatan kutilayotgan o‘zgarishlar ta’sir ko‘rsatoqda. Shu nuqtai-nazardan, moliyalashtirishning global shartlari muayyan darajada kuchaydi. Hozirgi noaniqlik vaziyatida har qanday kutilmagan voqealar yoki “kayfiyat”ning to‘satdan o‘zgarishi bozor narxlarining keskin pasayishiga va kapitalning tartibsiz qayta taqsimlanishiga olib kelishi mumkin. Foiz stavkalarining tez oshishi va dollarning sezilarli darajada mustahkam-lanishi bir qator mamlakatlarda ichki muammolar va moliyaviy qiyinchilik-larning kuchayishiga olib kelishi, bu esa qarz inqirozi xavfining oshishiga olib kelishi ham mumkin.

[6] Manba: Mirovoy rынok sementa. Marketingovoye issledovaniye: trendы, analiz i prognoz. Redaksiya 2025. Otchet kompanii INDEXBOX. Moskva. 2025 g., 76 s.


Tahlillarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, 2024-yilda dunyo bo‘yicha sementni sarf qilish hajmi 1,6 % ga kamayib, 3985 mln. tonnani tashkil qilib, oxir-gi uch yildagi kamayish tendensiyasini saqlab qolmoqda (1-rasm). Shunga qaramasdan ushbu davrda sementni sarf qilish hajmi barqaror darajada qo-lib, 3,8-4,3 mlrd tonnani tashkil qilmoqda.



1.-rasm. Sement mahsulotlari bozorining hajmi, natural holatda (mln tonnada, % oldingi yilga nisbatan).[7]

Iqtisodiy integratsiyani kengaytirish asosida sementdan olinadigan foyda mamlakatlar o‘rtasida va ular ichida adolatli asosda taqsimlanmas-ligini tushunish tobora ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda sement savdosini liberallashtirish va moliyaviy liberallashtirishdan olinadigan foyda mamlakatlar ichida daromad va boylik tengsizligining kuchayishi, turli harakatlar uchun imkoniyatlarning kamayishi, ayrim hollarda esa milliy suverenitetga putur yetkazish sabablari sifatida tobora ko‘proq ko‘rib chiqilmoqda.

Qiymat ko‘rinishidagi holatiga qarasak, sementning jahondagi bozori 300 mlrd doll. gacha kamaydi (2023-yilga nisbatan -7,1 %) (1.2-rasm). Ushbu summa o‘zida ishlab chiqaruvchilar va importerlarning umumiy daromadini ifoda etib, unda logistikaga qilingan harajatlar, bilvosita soliqlar va savdo ustamalartni hisobga olmaydi. Ushbu bozorning maksimal hajmi 2022-yilga to‘g‘ri kelib (357 mlrd doll), keyinchalik ikki yillik pasayish kuza-tildi.[8]



2-rasm. Dunyoda sement bozorining hajmi, qiymat ko‘rinishida (mlrd dollarda, % da oldingi yilga nisbatan).


[7] Manba: o‘sha joydan.

[8] Manba: Mirovoy rынok sementa. Marketingovoye issledovaniye: trendы, analiz i prognoz. Redaksiya 2025. Otchet kompanii INDEXBOX. Moskva. 2025 g., 76 s.

Shuni ta'kidlash joizki, 2012-2024-yillar orasida o'rtacha yillik sof o'sish sur'ati qiymat ko'rinishida XXRda 1,3 % ni tashkil qilgan. Qolgan yetakchi davlatlardan hisoblanmish Hindistonda +3,3 % ni, AQSHda esa +4,0 % ni tashkil qilgan.

Xalqaro hamkorlik va boshqaruv har qachongidan ham muhim bo'lgan bir paytda ko'p tomonlama tizim xavf ostida qolmoqda. 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasida kun tartibiga qo'yilgan ko'plab va-zifalar global xarakterga ega bo'lib, jamoaviy va birgalikdagi harakat-larni talab etadi.

Tahllilarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, 2024-yilda XXR dunyoda sementni sarf qilish borasida eng katta bozor bo'lib, uning sarf qilish hajmi 1896 mln tonnani tashkil qilib, bu natural ko'rinishda 48 % ga to'g'ri keladi (1.3-rasm). Bunday katta hajmda sementni sarf qilish aholi sonining yirik-ligi va urbanizatsiya jarayonlarining tezkorlik bilan olib borilayotganligi natijasida qurilish ishlarining faol o'sishiga olib kelishi bilan izoh-lanmoqda. Bundan tashqari XXR dunyoda sementni sarf qilish ko'rsatkichi bo'yicha ikkinchi o'rinda turgan Hindistonga (450 mln tonna, yoki 11,3 %) nisbatan to'rt marotaba ortiq sarf qilmoqda. Ushbu reyting bo'yicha AQSH-lari uchinchi o'rinni egallab kelmoqda (109 mln tonna, ulushi 2,7 %). Qiymat nuqtai-nazaridan qaraydigan bo'lsak, sementni sarf qilish borasida XXR 115 mlrd dollarlik bozor hajmi bilan yetakchilik qilib kelmoqda, ikkinchi o'rinda Hindiston – 24,5 mlrd doll., uchinchi o'rinda esa AQSHlari kelmoqda.



3-rasm. Davlatlar kesimida sementni sarf qilish bo'yicha taqsimlanishi (2024-y., % da, natural ko'rinish asosida).

XXR sement ishlab chiqarish bo'yicha yuqori rivojlangan industriyaga ega va dunyoda uni eng ko'p hajmda ishlab chiqaruvchi bo'lib qolmoqda. Shunga qaramasdan, ushbu mamlakatda ham oxirgi yillarda qurilish sektorining o'sish sur'atlari sekinlashganligi va uy-joylarga bo'lgan talab ham tusha-yotganligi natijasida sementni sarf qilish darajasi pasayishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu davlatning sement bozori asosan o'zining ishlab chiqa-ruvchilari hisobiga ta'minlanib, import qilinayotgan sementning hajmi judayam kam bo'lib, u ham bo'lsa uning sarf qilish hajmining 0,05 % ni tashkil qilmoqda xolos.

Xindistonning sement bozori yiliga 450 mln tonnaga to'g'ri kelib, ja-hon bozorining 11 % ni qamrab olmoqda va unda ham yuqoridagi kabi o'xshash iqtisodiy hamda ijtimoiy jarayonlar bilan tavsiflanadi. Sementni sarf qilish hajmi bo'yicha lider davlatlardan bo'lib AQSH (109 mln tonna), Vyetnam (95 mln tonna), Eron (70 mln tonna), Braziliya (68 mln tonna), Turkiya (67 mln tonna), Rossiya (65 mln tonna), Indoneziya (64 mln tonna) hisoblanmoqda. Shuni ta'kidlash joizki,

sementni sarf qilishning eng yuqori yillik o‘rtacha o‘sish sur’atlari 2007-2017-yillar orasida Osiyo dav-latlaridan hisoblanmish Vyetnam (+ 4,6 %) va Hindistonda (+ 4,4 %) kuzatildi.[9]

XXRda yuqorida qayd etilgan sanoat siyosatini amalga oshirish bosqich-larining ikkalasi ham kuzatilmoqda. Birinchi bosqichda eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlarga investitsiyalarni jalb qilish uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratildi, ikkinchi, joriy bosqichda iqtisodiyot uchun ustuvor bo‘lgan tarmoqlarni tanlab qo‘llab-quvvatlash amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, investorlar bilan doimiy muloqot olib borilmoqda, iqtisodiyotning ochiqligi darajasini kengaytirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda, qonunchilik muhiti takomillashtirilmoqda.

XXRning turli hududlarida iqtisodiy zonalar (soliq solishning im-tiyozli rejimiga ega bo‘lgan maxsus investitsiya zonalari, iqtisodiy va tex-nik rivojlanish zonalari, eksport ishlab chiqarish zonalari va boshqalar) tashkil etilmoqda, rivojlanmagan mintaqalarga investitsiyalar iqtisodiy imtiyozlar bilan rag‘batlantirilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, sement mahsuloti bozorini tahlil qilishda uning aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatkichi asosida davlatlarni holatini baholash mumkindir (3-jadval). Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki davlatlar kesimida turlicha bo‘lib, yillar kesimida ham dinamika bir xil emas. 2024-yil yakunlari bo‘yicha aholi jon boshiga sarf qilingan sement mahsuloti XXRda 1330 kgni tashkil qilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich Hindistonda – 314 kg, AQSHda – 322 kg, Vyetnamda – 948 kg, Eron-da – 793 kg, Braziliyada – 312 kg, Turkiyada – 776 kg, Rossiyada – 452 kg, Indo-neziyada – 225 kgni tashkil qilmoqda. Aholi jon boshiga sement mahsu-lotini sarf qilishning yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati ham ushbu davlarda tur-licha bo‘lmoqda.

2-jadval.


Davlatlar kesimida aholi jon boshiga sementni sarf qilinishining holati (mln tonna, kg/yil)

Davlatning nomi	Sarf qilinishi, mln. tonn			Aholi soni, mln. kishi			Aholi jon boshiga sarf qilinishi, har bir kishiga kg.			Sarf qilishning yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati, %	Aholi jon boshiga sarf qilishning yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati, %
	2022	2023	2024	2022	2023	2024	2022	2023	2024	2012-2024	2012-2024
XXR	2 101	1 997	1 896	1 419	1 423	1 426	1 480	1 404	1 330	-1,2%	-1,7%
Hindiston	380	420	450	1 407	1 420	1 432	270	296	314	4,4%	3,3%
AQSH	117	114	109	335	337	339	350	339	322	2,7%	2,0%
Vyetnam	105	93,4	95,2	99,0	99,7	100	1 056	937	948	4,6%	3,7%
Eron	55,6	69,6	69,7	86,0	87,0	87,9	647	801	793	0,2%	-1,1%
Braziliya	63,7	66,9	68,1	215	217	218	296	309	312	-0,3%	-1,0%
Turkiya	58,2	64,4	67,0	85,6	86,0	86,3	680	749	776	2,1%	0,9%
Rossiya	61,0	62,9	64,9	144	144	144	424	437	452	0,0%	-0,0%
Indoneziya	62,5	65,6	63,9	279	282	284	224	233	225	1,5%	0,3%
Boshqalar	1 105	1 096	1 101	3 853	3 906	3 960	-	-	-	1,7%	n/a
Jami	4 108	4 051	3 985	7 923	8 001	8 077	518	506	493	0,4%	-0,7%

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, qurilish materiali sifatida sementga bo‘lgan talab keyingi yillarda ham ijobiy dinamikada saqlanib qolinadi (1.4-rasm). Bashorat qilinishicha, 2024-yildan 2035-yilgacha o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati +0,8 % ni tashkil qilib, 2035-yilga kelib uning hajmi 4,3

[9] Manba: Mirovoy rынok sementa. Marketingovoye issledovaniye: trendы, analiz i prognoz. Redaksiya 2025. Otchet kompanii INDEXBOX. Moskva. 2025 g., 76 s.

mlrd tonnani tashkil qiladi.



4-rasm. Dunyo sement bozorining bashorat qilinishi.

Sanoat tarmog‘i va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishni muvofiqlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari sanoat va iqtisodiy rivojlanishni tartibga solish tizimida davlatning investitsiya resurslarini samarali qayta taqsimlashni ta’minlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдукаримов И.Т. ва бошқалар Корхона иқтисодий салоҳияти таҳлили. - Т.: Иқтисодиёт ва ҳудуд дунёси, 2003, - 256 б.
2. Калмуратов Б.С., Бекбосынов А. К Эффективность совершенствования управления инновационным развитием на промышленных предприятиях (на примере Республики Каракалпакстан).// Монография. – Ташкент: “METODIST NASHRIYOTI”, 2025. – 148 с.
3. Қалмуратов Б.С., Mintaqa sanoatini innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari//Qaraqalpaq mámleketlik universiteti, Ekonomika fakulteti “Qaraqalpaqstan Respublikası ekonomikasın turaqlı rawajlandırıwda jasıl ekonomikanıń ornı: bar bolǵan mashqalalar hám olardı sheshiw jolları” atamasında respublikalıq ilimiy-ámeliy konferenciya, 15-oktyabr 2025-jıl 241-243 betlar
4. Махмудов Э.Х., Ортиков А., Каримов Ф. Корхона иқтисодиётнинг асосий бўғини. / Ҳамкор. 2010 йил 7 февраль.
5. Нажимов И.П. Қурилиш материаллари ишлаб чиқариш корхоналарининг барқарор ривожланишини таъминлаш (Монография) //—Т.: — Lesson Press, 2021.–141б. (ISBN 978-9943-7712-4-6)
6. Ортиков А.. Саноат иқтисоди. Дарслик. Т.: ТДИУ, 2009. 236 б.
7. Стратегия дальнейшего повышения конкурентоспособности национальной экономики: материалы 1У-го Форума экономистов / отв. ред. М.П. Нарзикулов. Ташкент. Вак1паРгез$, 2012. С. 8.

СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И АУДИТА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Худайбердиева Шахноза Рашидовна
Студентка факультета экономики и туризма кафедры бухгалтерского учёта и аудита
Бухарского государственного университета (Республика Узбекистан)
https://doi.org/10.5281/zenodo.18859265

Аннотация. *В условиях глобализации и цифровой трансформации бухгалтерский учёт и аудит претерпевают существенные изменения. Усиление роли международных стандартов финансовой отчётности, внедрение цифровых технологий, а также рост финансовых и нефинансовых рисков требуют пересмотра традиционных подходов к учёту и аудиту. В статье рассматриваются ключевые современные вызовы бухгалтерского учёта и аудита, анализируется влияние международных стандартов и цифровых технологий на качество финансовой информации, а также предлагаются направления совершенствования системы бухгалтерского учёта и аудита в условиях глобальной экономики.*

Ключевые слова: *бухгалтерский учёт, аудит, МСФО, цифровизация, финансовая отчётность, риск-менеджмент, глобализация.*

1. Введение

Бухгалтерский учёт и аудит являются важнейшими элементами финансово-экономической системы любого государства. Они обеспечивают формирование достоверной информации о финансовом положении и результатах деятельности хозяйствующих субъектов, необходимой для принятия управленческих, инвестиционных и контрольных решений.

В условиях глобализации возрастает значение сопоставимости и прозрачности финансовой отчётности, что обусловливает активное внедрение Международных стандартов финансовой отчётности (МСФО). Одновременно с этим цифровая трансформация экономики оказывает существенное влияние на методы ведения бухгалтерского учёта и проведения аудита, формируя новые возможности и риски.

2. Международные стандарты финансовой отчётности и проблемы их внедрения

Международные стандарты финансовой отчётности направлены на унификацию и гармонизацию финансовой информации, представляемой компаниями различных стран. Применение МСФО способствует:

- повышению прозрачности финансовой отчётности;
- улучшению инвестиционной привлекательности организаций;
- снижению информационной асимметрии между пользователями отчётности.

В то же время практика внедрения МСФО сопровождается рядом проблем, особенно в развивающихся экономиках:

1. Недостаточный уровень профессиональной подготовки бухгалтеров и аудиторов;
2. Отсутствие устойчивой методологической базы и разъяснений стандартов;
3. Различия в национальном законодательстве и налоговых системах;

4. Высокие затраты на переход к международным стандартам.

Эффективность применения МСФО во многом зависит от качества институциональной среды и системы профессионального образования.

3. Цифровая трансформация бухгалтерского учёта и аудита

Развитие цифровых технологий существенно изменяет традиционные функции бухгалтерского учёта и аудита.

3.1. Использование больших данных и аналитических инструментов

Современные информационные системы позволяют обрабатывать большие объёмы данных в режиме реального времени, что повышает точность расчётов и качество управленческих решений. В аудите аналитические инструменты используются для выявления аномалий, оценки рисков и повышения эффективности аудиторских процедур.

3.2. Искусственный интеллект и автоматизация

Применение искусственного интеллекта способствует автоматизации рутинных операций, снижению вероятности ошибок и повышению производительности труда. Однако чрезмерная автоматизация требует усиленного контроля за корректностью алгоритмов и соблюдением профессиональной этики.

3.3. Блокчейн и облачные технологии

Технология блокчейн обеспечивает неизменяемость и прозрачность финансовых данных, что способствует укреплению доверия к финансовой информации.

Облачные технологии расширяют возможности удалённого доступа и совместной работы, но одновременно повышают требования к информационной безопасности.

4. Аудит и управление рисками в современной экономике

Современный аудит ориентирован на риск-ориентированный подход, предполагающий выявление и оценку существенных рисков искажения финансовой отчётности. Особое значение приобретают:

- финансовые риски;
- операционные риски;
- информационные и киберриски;
- репутационные риски.

В условиях цифровизации аудиторы должны обладать не только профессиональными знаниями в области учёта, но и компетенциями в сфере информационных технологий и анализа данных.

5. Этические и профессиональные аспекты

Рост использования цифровых технологий усиливает значимость профессиональной этики. Основными этическими вызовами являются:

- защита конфиденциальной информации;
- обеспечение независимости аудитора;
- предотвращение манипулирования финансовыми данными;
- ответственность за результаты автоматизированных решений.

Профессиональные организации должны регулярно обновлять кодексы этики с учётом цифровых реалий.

6. Заключение

Современные вызовы бухгалтерского учёта и аудита обусловлены глобализацией, цифровой трансформацией и усложнением экономических процессов. Эффективное

развитие системы бухгалтерского учёта и аудита возможно при условии гармоничного сочетания международных стандартов, современных технологий и высоких профессиональных и этических требований. Особое внимание следует уделять подготовке кадров, развитию институциональной среды и управлению рисками.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Аллес М. Большие данные и блокчейн в аудите // Accounting Horizons.
2. Болл Р. Международные стандарты финансовой отчётности: преимущества и ограничения // Journal of Accounting Research.
3. Браун-Либурд Х., Васархейи М. Цифровые технологии и аудит // Journal of Accounting Literature.
4. Нобес К., Паркер Р. Международный сравнительный бухгалтерский учёт. — Pearson Education.
5. Тарка А. Внедрение МСФО в развивающихся экономиках // International Journal of Accounting.
6. Зефф С. Проблемы глобальной сопоставимости финансовой отчётности // The British Accounting Review.

Contents – Mundarija – Содержание

Akhmadkulov Dilshod Rakhmonali ugli
HUMAN CAPITAL AND TEAM PERFORMANCE: EVIDENCE FROM ORGANIZATIONAL TEAMS 9

Musayeva Shoira Azimovna
XALQARO SANOAT KORXONALARI BOZORIDA MARKETING MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR 16

Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o‘g‘li
TIJORAT TIBBIYOT MARKAZLARI SOHASIDA TIBBIY XIZMATLAR BOZORIDAGI RAQOBAT SHAROITI HAMDA ISTE’MOLCHILAR TANLOVIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR 23

Maxmudova Gulrux Ravshanbekovna, Xolmurzayeva Sarvinoz Komiljon qizi
INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLARI 30

Усмонова Дилфуза Илхомовна, Усманов Шахзод Шохрухович
УЛУЧШЕНИЕ УЧЕТА ДОХОДОВ ОТ ОСНОВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В КОМПАНИИ SAM GLASS LLC 33

Yilmaz Ulvi UZUN
ПРЯМЫЕ ИНОСТРАННЫЕ ИНВЕСТИЦИИ В КАЗАХСТАНЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И СТРУКТУРНЫЙ ОБЗОР 42

Usmanov Abdujabbor
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA “OT” SO‘Z TURKUMINI O‘TISHDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASH USULLARI 55

Qudratov Alisher Alijanovich
O‘ZBEKISTONNING IQTISODIY SHAROITIDA DUKKAKLI MAHSULOTLARNI YETISHTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH YO‘NALISHLARI 59

Jalolov Abboskhon Ravshankhon ugli
CONCEPTUAL MODELS OF COMPETITIVENESS ASSESSMENT AND THEIR EVOLUTION 64

Aymuxammedova Amina Kakajanovna
DAROMADLAR VA XARAJATLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY ASOSLARI 72

Gapparova Iroda
FACTORS INFLUENCING WOMEN'S PROMOTION INTO SENIOR ROLE EMPLOYMENT IN UZBEKISTAN 76

Jumaniyazova Ozodaxon Zaripboy qizi
XORAZM VILOYATIDA QISHLOQ TURIZMINING O‘RNI VA UNING IQTISODIYOTIGA TA’SIRI 80

Muminova Madinaxon Doniyor qizi
O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATINING O'RNI 84

Achilova Firuza Kurbanovna
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHINI BAHOLASH 91

Mamatov Abdurauf Olimjonovich
O'ZBEKISTONDA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINI RIVOJLANTIRIShDA INDIVIDUAL INVESTORLARNING ROLI 99

Maftuna Akbarovna Toshpulatova
A FRAMEWORK FOR OPERATIONAL AND STRATEGIC MANAGEMENT TO IMPROVE TOUR AGENCY PERFORMANCE IN HOSPITALITY CONTEXTS 104

Xazratkulov O'ktamjon Xikmatullayevich
TO'LOV TIZIMLARIDA KIBERREZILIENTLIK VA OMMAVIY ISHONCH: PUL MUOMALASI BARQARORLIGIGA TAHDIDLAR VA BOSHQARUV YECHIMLARI . 111

Keulimjaev Baxtiyar Konakbaevich
SANOAT KORXONALARI XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONIDA INNOVATSIYALARGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVNING AHAMIYATI 115

Xayitboev Abror Quvondiqovich
МИНТАҚА САНОАТ ТАРМОҒИ САМАРАДОРЛИГИ ВА ОМИЛЛАРИНИНГ ИҚТИСОДИЙ-СТАТИСТИК ТАҲЛИЛИ 118

Yaxshimuratova Anajon G'ayratovna
"ICHAN-QAL'A" DAVLAT MUZEY-QO'RIQXONASIDA SUN'IY INTELLEKT VA AQLLI CHATBOTLAR ORQALI TURISTIK XIZMATLARNI RAQAMLASHTIRISH IMKONIYATLARI 126

Usmanov Abdujabbor
O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI 131

Qudaybergenov Azamat Shamuratovich
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT TARMOG'INI RIVOJLANISHINI JAHON TAJRIBASI 134

Худайбердиева Шахноза Рашидовна
СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И АУДИТА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 142

International scientific journal Management, Marketing and Finance

VOLUME 3 ISSUE 1
JANUARY-FEBRUARY 2026

“Menejment, marketing va moliya” xalqaro ilmiy jurnali
2026-yil 1-soni

Published: 28.02.2026. Font: “Times New Roman”.

Ilmiy maqolalarga qo‘yiladigan texnik talablar:

“Management, Marketing and Finance” xalqaro ilmiy jurnali oliy ta’1im muassasalarining professor-o‘qituvchilari va ilmiy izlanuvchilari tomonidan olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini ilmiy maqola tarzida chop etadi. Shuningdek jurnalga ishlab chiqarish tashkilotlari va korxonalarida faoliyat ko‘rsatib, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borayotgan hodimlarning ham ilmiy maqolalari kiritiladi.

“Management, Marketing and Finance” xalqaro ilmiy jurnali quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha maqolalar qabul qiladi:

05.00.00 - TEXNIKA fanlari;

08.00.00 - IQTISODIYOT fanlari;

12.00.00 - YURIDIK(Huquq) fanlari.

Jurnalning rasmiy tillari: o‘zbek, ingliz, rus.

- maqolalar ilmiy jurnal yo‘nalishlariga oid dolzarb mavzularda, ilmiy tahlil va tugallangan fikrlar asosida amaliy tavsiyalar bilan taqdim etilishi lozim.

- maqolalar hajmi – 5 betdan ortiq bo‘lmasligi lozim.

- matn formati: MS Word, Times New Roman shrifti, 12 kegl kattalikda bo‘lishi kerak. Satrlar oralig‘i 1,5 interval. Chegara o‘lchovlari: barcha tomondan – 2 sm. Matn boshlanishida 1 sm satr boshi tashlanadi.

- rasm va jadvallar nomlanishi arab raqamlari bilan belgilanishi (1-rasm, 1-jadval va h.k.), maqola matnida ularga havola etish lozim; jadvallar ichidagi yozuvlar 12 kegl bo‘lishi kerak. Foydalanilgan adabiyotlarga matnda havola beriladi.

- maqola nomi va muallif (hammualliflar)ning familiyasi, ismi-sharifi katta harflar bilan 12 keglda (ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, ish joyi, lavozimi, telefon raqami, e-mail kichik harflar bilan) o‘rta qismiga joylashtiriladi.

“Management, Marketing and Finance” xalqaro ilmiy jurnalida har bir maqolaga DOI raqam olinib, Polshaning Indeks Copernikus(OAK12), Yevropaning Zenodo va Open Aire, Rossiyaning Cyberlinenka, Angliyaning Europub xalqaro ilmiy bazalariga va www.jmmf.uz saytiga joylanadi, Google akademiya xalqaro ilmiy qidiruv tizimida indekslanadi.

Har bir muallif bir vaqtning o‘zida yakka va hammualliflikda maqola bilan qatnashishi mumkin.

Maqola elektron shaklda +998 95 863 63 40 (https://t.me/Science_MMM_journal) telegram profili orqali qabul qilinadi.

Shuningdek maqolalar journalmmf@gmail.com elektron manzillariga yuborilishi mumkin.

Maqolalar har oyning 25-kuniga qadar qabul qilinadi.

Jurnalning nashr etilish sanasi: har oyning so‘nggi sanasi.

Jurnalning rasmiy sayti: https://jmmf.uz

Ma’lumot uchun telefonlar: +998 95 863 63 40; +998 90 992 00 95 (MDIST).